

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**



**NEFT VA GAZ FAKULTETI**

**TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH  
KAFEDRASI**

**5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va  
boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi talabalari uchun  
“Avtomatlashtirish sistemalarini loyihalash va sozlash” fanidan**

**MA'RUZALAR MATNI**



**Qarshi 2020 yil**

**Avtomatlashtirish sistemalarini loyihalash va sozlash fanidan ma`ruzalar matni/ Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti /.: Qarshi, 2020.-108 b.**

**Tuzuvchilar:**

**kat. o'q. Husanov S.N.** - “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasи

**assistant Tojiboyev S.J.** - “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasи

**stajyor-o'qituvchi Farxodov S.U.** - “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasи

**Taqrizchilar:**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
“Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasи dotsenti,  
**A.R.Mallayev**

Qarshi davlat universiteti “Informatika o'qitish metodikasi” mudiri  
**PhD. Yuldashev I.A.**

Ma'ruzalar matni 5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat ta'lif yo'nalishi uchun mo'ljallangan.

Ma'ruzalar matni “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasining 2020 yil 10 martdagи 15-sonli, Neft va gaz fakulteti Uslubiy komissiyasining 2020 yil 23 apreldagi 09-sonli, Institut Uslubiy Kengashining 2020 yil 26 майдаги 10-sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilib tasdiqlangan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

“Avtomatlashtirish sistemalarini loyihalash, o'rnatish va sozlash” o'quv fanidan ma'ruzalar matnida Avtomatlahtirilgan sistemalarni loyihalash ishlarini amalga oshirishda qo'llaniladgan dasturlardan foydalanilgan(AutoCAD, KOMPAS-3D). Shu bilan birga texnologik qurilmalarning joylashish o'rni, montaj ishlarini olib borish va xalqaro GOST talablariga to'la most kelishligi haqida ma'lumot olish mumkin.

## MUNDARIJA


Kirish	.....	
1 - Mavzu:	Kirish. Loyihalash bosqichlari va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish loyihasining tarkibi .....	4
2- Mavzu:	Avtomatlashtirish sistemalarining tarkib chizmaları.....	7
3- Mavzu:	Avtomatlashtirishning funksional chizmalarini loyihalash.....	8
4- Mavzu:	Prinsipial elektr va pnevmatik chizmalar. Boshqarish, signallash va himoya chizmaları. ....	10
5- Mavzu:	Prinsipial elektr va pnevmatik chizmalar. Boshqarish, signallash va ximoya chizmaları(Davomi).....	14
6- Mavzu:	Elektr va pnevmatik manba tizimlarini loyihalash.....	21
7- Mavzu:	Elektr va pnevmatik manba tizimlarini loyihalash(Davomi).....	21
8- Mavzu:	Shchit va pultlarni loyihalash.....	29
9- Mavzu:	Tashqi elektr va trubali ulanishlar.....	29
10- Mavzu:	Tashqi elektr va trubali ulanishlar(Davomi).....	36
11- Mavzu:	Tashqi elektr va trubali ulanishlar(Davomi).....	38
12- Mavzu:	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini loyihalashtirish.....	38
13- Mavzu:	Avtomatlashtirish sistemalarining loyihalashda matn materiallari	38
14- Mavzu:	Avtomatlashtirish vositalarini montaj qilish va sozlash ishlari bo'yicha umumiy tushunchalar.....	43
15- Mavzu:	Montaj va sozlash ishlari uchun me'yoriy va texnik hujjatlar...	47
16- Mavzu:	Montaj, sozlash va tayyorlash ishlaridagi jihoz va asboblar.....	60
17- Mavzu:	Temperatura o'lchash vositalarining montaj va sozlash ishlari...	61
18- Mavzu:	Bosim o'lchash vositalarining montaj va sozlash ishlari.....	62
19- Mavzu:	Sarfni o'lchash vositalarining montaj va sozlash ishlari.....	66
20- Mavzu:	Suyuqlik va sochma materiallar sathini o'lchash vositalarining montaj, sozlash ishlari.....	71
21- Mavzu:	Gaz aralashmasi tarkibini o'lchash vositalarining montaji va sozlash ishlari.....	77
22- Mavzu:	Suyuqliklarning tarkibini o'lchash vositalarining montaj, sozlash ishlari.....	80
23- Mavzu:	Shchit va pultlarni montaji va sozlash ishlari.....	87
24- Mavzu:	Rostlagich va ijro mexanizmlarning montaj va sozlash ishlari...	91
25-Mavzu:	SHchit va pultlarni montaji va sozlash ishlari.....	93
26-Mavzu:	Rostlagich va ijro mexanizmlarining montaj va sozlash ishlari...	101
Adabiyotlar.....		102
ГЛОССАРИЙ (Фанга оид таянч сўз ва ибораларнинг қисқа талқини)		103

## **1- Ma’ruza: Kirish. Loyihalash bosqichlari va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish loyihasining tarkibi**

Kimyo texnologiya tizimlari (kegusida texnologik tizimlar) deganda, unda ketayotgan fizik-kimyoviy jarayonlar va ularni amalga oshiruvchi vositalar birgalikda tushuniladi. shunday qilib texnologik tizimlar jarayonni, u ketayotgan qurilmani, jarayonni nazorat va boshqarish vositalarini va ular orasidagi o’zaro bog’liqliklarni o’z ichiga olar ekan.

Masalan: reaktorda ketayotgan boshqariladigan texnologik jarayonni texnologik tizimlar deb qarash mumkin (1.1 - rasm). Texnologik jarayonning ketishi bo’yicha axborot birlamchi o’zgartirgichdan (BO’) rostlagichga (R) uzatiladi, u o’z navbatida texnologik parametrning shu vaqtagi qiymatini belgilangan qiymatdan farqiga qarab rostlash ta’sir signali ishlab chiqaradi va ijrochi qurilma (IQ) orqali ob’ektga ta’sir ko’rsatadi.

Ushbu texnologik tizim tashqi muhit bilan o’zaro ta’sirda bo’lgani uchun, uning holatini kirish X signallari orqali baholash mumkin. Kirish signali bo’lib odatda xom-ashyo, uning miqdori, tarkibi, temperaturasi va boshqalar bo’lishi




mumkin. chiqish signali bo’lib, tayyor mahsulot miqdori, uning sifati, teperaturasi va boshqalar bo’lishi mumkin va u tizim xolatini belgilaydi.

Texnologik tizimga odatda har xil turkilar Z ta’sir ko’rsatadi va texnologik tizimni belgilangan sharoitlardan chiqaradi. Bu turki ta’sirlarini kompensasiya qilish uchun, odatda boshqaruvchi ta’sirlardan foydalilaniladi.

Texnologik tizim - murakkab ob’ekt hisoblanib, uni alohida elementlarga (podsistema) dekompozitsiyalash mumkin. Elementlar o’zaro informatsion bir-biri bilan va ob’yekt atrof muhiti bilan bog’liqidir. Bu bog’liqliklar ob’yekt tuzilishini tashkil etadi.

Texnologik tizim mo’ljallangan maqsadga erishishga yo’naltirilgan algoritm bo’yicha ishlaydi. Hamma texnologik tizimlarni shartli ravishda katta va kichik tizimlarga bo’lish mumkin.

Kichik tizimlar odatda bir tipik jarayon bilan cheklangan bo’lishi ham mumkin. Katta tizimlar, kichik tizimlarning murakkab ravishda mujassamlangan ko’rinishi bo’lib, ulardan ham miqdoriy, ham sifat ko’rsatkichlari bo’yicha farq qiladi. Katta kibernetik texnologik tizim sifatida kimyoviy sexni yoki korxonani misol qilish mumkin (1.2 - rasm).



1.2 – rasm. Ishlab chiqarish korxonasining ierarxik tuzilishi

Har qanday ishlab chiqarish korxonasini uch ketma-ket bajariladigan texnologik operasiya ko’rinishida tasavvur qilish mumkin: xomashyonи tayyorlash, qayta ishlash jarayoni va nihoyat ko’zlangan sifat hamda mikdordagi mahsulotni olish. Bu operasiyalar ketma-ketligi, yakka bir murakkab texnologik tizim ko’rinishida mujassamlangandir.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonasi, katta masshtabli tizim sifatida, juda ko’p o’zaro bir-biriga bo’ysingan kichik tizimlardan, hamda boshqarish tizimlaridan tashkil topgan.


### Boshqarish tizimlari tasnifi

Zamonaviy boshqarish tizimlari quyidagi belgilar bo'yicha tavsiflanadi:

1. Boshqarish tizimi strukturasi (tuzilmasi) bo'yicha:
  - a) bir bosqichli (Lokal avtomatik rostlash tizimlari LART).
  - b) Ierarxik (texnologik jarayonlar avtomatik boshqarish tizimlari-TJABT, korxonani avtomatik boshqarish tizimlari - KABT).
2. Boshqarish tizimining murakkablik darajasiga qarab:
  - a) sodda tizimlar.
  - b) murakkab tizimlar.
  - v) juda murakkab tizimlar.
3. Ishlash xarakteri bo'yicha BT.
  - a) Determinlashgan.
  - b) Staxostik.
4. Avtomatlashdirish darajasiga qarab BT.
  - a) Avtomatik nazorat va qo'lда boshqarish tizimlari.
  - b) Avtomatik boshqarishning lokal tizimlari.
  - v) Avtomatlashdirilgan boshqarish tizimlari.

Ishlab chiqarish korxonasining har bir tizimini, bir butun texnologik tizim va avtomatik boshqarish tizimi ko’rinishida tasavvur qilinadi.

ABT qurishning samaradorligi ko'p jixatdan lokal avtomatlashtirish tizimlariga bog'liq. Ular texnologik jarayonlarni avtomatlashgan boshqarish tizimlarining quyiierarxiyasida joylashgan bo'lib, ularni yaratishda yuqori ierarxiya talablarini hisobga olish kerak bo'ladi.



1.3-rasm.

Lokal avtomatik rostlash tizimlari yordamida texnologik parametrlar (temperatura, bosim, sarf satx va boshqalar) nazorat qilinadi, signallanadi va rostlanib boriladi. Bu tizim yordamida texnologik parametrlar texnologik reglamentda ko'rsatilgan nominal qiymatlarda ushlab turiladi.

Korxona ierarxiyasining **ikkinci - о'rta** bosqichini agregatlar, komplekslar, sexlar va texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlari tashkil qildi.

YUqori intensiv texnologik jarayonlarni va yuqori quvvatli agregatlarni yaratilishi hamda ishlab turgan korxonalarni optimallashtirish maqsadida rekonstruksiya qilinishi natijasida yangi ilmiy texnik masalalar vujudga keladi:

1) ishlab chiqarish korxonasi va agregatlarni iqtisodiy va energotexnologik ko'rsatkichlar bo'yicha optimal sharoitlarda ishlashini tashkil qilish;

2) agregatlarda moddiy va energetik oqimlarni optimal tashkil qilish yo'li bilan boshqarish funksiyasini aggregatning o'ziga berish, ya'ni agregat tuzilishini kibernetik tashkil qilish;

3) energotexnologik tizimlarni qo'llash natijasida agregatlarning ishonchli ishlashini ta'minlash uchun boshqaruvchi hisoblash mashinalarini qo'llash.

Ushbu ierarxik bosqichda, kichik tizimlarni boshqarishda, apparatlar ishini optimal koordinasiyalash va ular orasidagi quvvatlarni optimal taqsimlash masalalari vujudga keladi. Bu masalalarni yechishda umuman yangi dekompozisiyalash va agregasiyalash usullari, evrestik modellashtirish nazariyasi asosida texnologiyani tahlil qilish, ko'p bosqichli optimallashtirish va boshqa usullardan foydalaniladi.

Korxona ierarxiyasining **uchinchi – yuqori** bosqichida sexlar faoliyatini operativ boshqarish tizimlari, ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimlari, xomashyoni taqsimlanishini rejalashtirish, tayyor maxsulotni taqsimlanishi, ya'ni, korxonani avtomatik boshqarish tizimi yaratiladi. Ierarxiyaning ushbu bosqichida vaziyatga qarab taxlil qilish, korxonani optimal boshqarish masalalari vujudga keladi. Bu masalalarni yechishda tizim-texnikasining matematik usullari, chiziqli

dasturlash, o'yinlar nazariyasi, ma'lumotlar nazariyasi va boshqa usullar qo'llaniladi.

## 2-ma'ruza: Avtomatlashtirish texnik tizimining xayotiy faoliyat davri

**Reja:**

1. Avtomatlashtirish tizimlarini loyihalash g'oyasini yaratish;
2. Loyihalash
3. Avtomatlashtirish tizimlarini montaj qilish;
4. Avtomatlashtirish tizimlarini ekspluatasiya qilish.

Boshqarish tizimlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilish quyidagi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi: (zamisl) g'oya loyihalash, montaj, sozlash va ekspluatasiya (ishlatish) qilish.

shunday qilib, texnik tizimning xayotiy faoliyat davri quyidagi bosqichlarda o'tadi:



2.1-rasm

**G'oyani yaratish** - murakkab ijodiy jarayon bo'lib bu bosqichda o'zimizda va chet el mamlakatidagi texnologik jarayonlarni boshqarish bo'yicha g'oyalar asosida yangi boshqarish g'oyasi shakllantiriladi. Texnik yechimlar variantlari taxlil qilinadi. Bu bosqichda, ba'zi xolatlarda ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari xam amalga oshirilishi mumkin. Ushbu bosqich oxirida loyiha texnik topshiriq ishlab chiqiladi.

**Loyihalash** bu murakkab, ko'p mexnat talab qiladigan jarayont xisoblanadi. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan loyixalash muddati aloxida o'rinnegallaydi. Texnik tizimlarining xayotiy faoliyat davri qisqarish tendensiyasiga egaligini xisobga olganda, loyixalash va joriy qilish muddatlarini qisqartirish kerak bo'ladi.

Loyihalash bosqichining asosiy vazifalari bo'lib, tizimning texnik va dasturiy xujjalarning to'liq komplektini ishlab chiqish xisoblanadi

Ishlab chiqilgan texnik xujjalalar sanoatda tizimni sifatli ishlab chiqish imkonini berish bilan birga, u ma'lum talabalarga javob berishi va tizimni ishonchli ishlashini ta'minlash lozim.

Texnik hujjalarning tarkibi va mazmuni konstruktorlik hujjalarning yaxlit tizimi (ESKD) bilan belgilanadi. U GOST (Davlat standarti)lar, OST, RTM (rukovodyashchie texnicheskie materialy- yo'l yo'riq ko'rsatuvchi texnik materiallar) SNIP (stroitelnye normy i pravila – qurilish normalari va qoidalar)lardan tashkil topgan bo'lib, boshqarish tizimlarini texnik konstruktorlik xujjalarni bajarish ishlab chiqishning xamma davrlarida rasmiylashtirish va foydalanish, tayyorlash, ekspluatasiya qilish, ta'mirlash qoidalari keltirilgan bo'ladi.

Boshqarish tizimining dasturiy xujjatlari tarkibi mazmuni va rasamiylashtirilishi (edinaya sistema programmnoy dokumentasiya) dasturiy xujjatlar yaxlit tizimi (ESPD) bilan belgilangan bo'ladi.

**Avtomatlashtirish tizimlarini montaj qilish**, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo'yicha ishlarning ikkinchi bosqichi xisoblanadi. Bunda loyixa va amaldagi normativ texnik xujjatlar asosida o'lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalari o'rnatiladi, va ularga kerakli kommunikasiyalar keltirilib ulanadi.

Montaj ishlari muddatini qisqartish va sifatini oshirish ko'p jixatdan montaj ishlarini industraslashirishga bog'liq. Bunda ko'p montaj ishlar kerakli asboblar va mexanizmlar bilan jihozlangan zavodlarda yoki montaj-tayyorlov punktlarida amalga oshiriladi. (Xarajatlar bunda 1,5 barobarigacha kamayishi mumkin).

Montaj ishlari yakunlangandan so'ng, avtomatlashtirish tizimlarini sozlashga o'tiladi. Tizim elementlarini tekshirish murakkab ishlarni amalga oshirib avtomatlashtirish tizimining normal ishlashiga erishiladi.

**Avtomatlashtirish tizimlarini ekspluatasiya qilish** operator-texnologlar tomonidan amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirish tizimlar murakkab ishlatish ob'ekti xisoblanib, tizimning ishonchli va to'g'ri ishlashi uchun reja profilaktik ishlarni amalga oshirish xisobga olinishi kerak. YA'ni ta'mirlash, ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti, o'lchov asboblarni tekshirish va boshqalar. Bu ishlarni amalga oshirish uchun avtomatlashtirish tizimlarini ekspluatasiya qilish xizmati tashkil qilinadi.

### **3-ma'ruza: Lokal avtomatlashtirish tizimlarini loyihalashning asosiy bosqichlari**

#### **Reja:**

1. Avtomatlashtirish tizimlarini loyihalashga topshiriqni tayyorlash;
2. Avtomatlashtirish loyiha hujjalarning tarkibi va mazmuni Ishchi loyihaning grafik va yozuv materiallari tarkibi;
3. Loyihalashga texnik topshiriq.

Avtomatlashtirish bo'yicha loyiha ishlari soha loyiha institutlarining avtomatlashtirish bo'limlari yoki avtomatlashtirish bo'yicha ishlaydigan maxsus tashkilotlar tomonidan bajariladi. Soha loyiha institutlar odatda general bosh loyihami xisoblanadi.

**Avtomatlashtirish tizimlarini loyihalash, loyihalashga topshiriq va texnik iqtisodiy asos (TEO) asosida amalga oshiriladi.** Ba'zi hollarda, kerak bo'lsa, loyixa ishlarni boshlashdan oldin, ilmiy tadqiqot ishlari xam olib boriladi.

**Loyihalashga topshiriq** buyurtmachi tomonidan, bosh loyihalovchi ishtirokida, avtomatlashtirish tizimlari uchun esa, shu tizimlarni ishlab chiquvchilar ishtirokida ishlab chiiqiladi.

Loyihalashga topshiriqni tasdiqlash tartibi SNiPga muvofiq belgilanadi.

Texnik topshiriq (TZ) tarkibiga loyihalash uchun asos, boshlanish va yakunlash muddatlari, loyixada qatnashuvchi tashkilotlar nomlari, ishga tushiriladigan komplekslar ro'yxati, asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar, xamda ilmiy tadqiqot ishlari va tajriba sinov ishlarini bajarishga talablar kiritiladi.

shuningdek lokal avtomatlashtirish tizimini loyixalashga topshiriqga tarkibiga:

- Sex, agregat va qurilmalar ro'yxati, hamda texnologik sxema;
- Avtomatlashtirishning funksional masalalari ro'yxati;
- Nazorat qilinadigan va rostlanadigan parametrlar ro'yxati;
- Boshqarish strukturasi va shchit va pultlarning joylashishi bo'yicha tavsiyalar kiradi.

Loyihalashga topshiriq bilan loyixalash uchun kerak bo'lgan quyidagi ma'lumotlar va materiallar taqdim etiladi:

- Ishlab chiqarish xonalarining va texnik jixozlarning chizmalari;
- Elektr energiya va siqilgan xavo manbalari to'orisida ma'lumot;
- Ishlab chiqarish xonalariga xarakteristika va boshqalar.

Loyihalash bir bosqichda (ishchi loyiha) yoki ikki bosqichda texnik va ishchi loyiha amalga oshirilishi mumkin.

Sodda lokal boshqarish tizimlarini loyixalashda bir bosqichli loyixalash ishlatiladi.

### **Avtomatlashtirish loyiha hujjatlarining tarkibi va mazmuni**

Bir bosqichli loyihalash ishchi loyihasi tarkibiga quyidagi grafik materiallar kiradi:

- Avtomatlashgan ishlab chiqarishni boshqarishning struktura chizmasi,
- Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish chizmalari,
- Nazorat, boshqarish, texnologik signallash va tizimning texnik vositalarining manbasining prinsipial elektr va pnevmatik chizmalari,
- shchit va pultlarning xujjatlari (umumiy ko'rinishi ulanishlar jadvali),
- Tashqi ulanishlar chizmasi,
- Ulanishlar va jihozlarning joylashish chizmasi,
- yordamchi uskunalarni o'rnatish chizmalari,
- Nostandart jihozlarning chizmalari.

Loyihaning yozuv materiallariga quyidagilar kiradi:

- Tushuntirish yozuvi,
- Toraytirish qurilmalari, rostlash organlarini xisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar va xisoblash natijalari jadvali,
- Qurilmalar spesifikasiyasi (tasnifi),
- Jihoz va monatjning narxi smetasi,
- Avtomatlashtirish vositalari montajining tipik chizmalarini o'z ichiga olgan normalar ro'yxati.

shchitlarga ta'luqli hujjatlar odatda ilovada keltiriladi.

Ishchi chizmalarni bajarishda montaj ishlarini industrlashtirish hisobga olish kerak.

**Loyihalashga texnik topshiriq.** Avtomatlashtirish bo'yicha loyixani ishlab chiqarish ob'ekti kompleks loyihasining boshqa qismlari bilan kelishish uchun texnik topshiriq tuziladi:

- avtomatlashtirish qurilmalarini elektr manba, siqilgan havo, issiqlik va sovutish agenti bilan ta'minlashga topshiriq,
- operator va dispatcher punktlari xonalariga topshiriq,
- aloqani ta'minlashga topshiriq,
- alohida ishlarni bajarishga topshiriq (masalan: trubalarni issiqlik izolyasiyasini, yo'laklarni yaratish, texnologik jihozlarda ular qurilmalarini rostlash organlarini joylashtirish).

Hamma topshiriqlar general (bosh) loyihalovchiga beriladi.

#### **4-Ma'ruza. Avtomatlashtirish sistemalarining tarkib chizmalari (4-soat)**

##### **Reja:**

1. Boshqarish va nazoratning struktura chizmalari tasnifi:
  - bir bosqichli va ko'p bosqichli boshqarish strukturalari. Bir bosqichli markazlashgan va markazlashmagan boshqarish strukturalari.;
  - ko'p bosqichli boshqarish strukturalari;
2. Boshqarish va nazoratning struktura chizmalari tarkibi;
3. Boshqarish va nazoratning struktura chizmalarining bajarilishi;
4. Asosiy bo'linmalarning va boshqarish punktlarining shartli belgilanishi:
  - Texnik vositalarning funksional guruhlarining shartli belgilanishi;
  - Texnik vositalar funksiyasini shartli belgilanishi.

Avtomatlashtirish loyihalarini ishlab chiqishda birinchi navbatda ob'ektimiz qaerda boshqarilishini, boshqarish punktlari, operator xonalari qaerda joylashishini, ular orasidagi bog'liqlikni, ya'ni boshqarish strukturasi aniqlanishi kerak.


Boshqarish strukturasini va uning ierarxiyasini tanlash uchun boshlang'ich ma'lumotlar buyurtmachi bilan topshiriq olishda kelishib olinadi.

Umumiy ko'rinishda avtomatlashtirish tizimining struktura chizmasini qquyidagicha tasavvur qilish mumkin (4.1-rasm):

Ushbu chizmada boshqarish tizimi qanday boshqarish punktlaridan tashkil topgani qo'rsatilmagan (ya'ni, bir bosqichlimi yoki ko'p bosqichlimi).

##### **Bir bosqichli va ko'p bosqichli boshqarish strukturalari**

Bir bosqichli markazlashgan va markazlashmagan hamda ko'p bosqichli boshqarish strukturalari mavjud.



4.1-rasm.

Belgilangan qiymatlar yordamchi parametrlar (issiqlik va suv ta'minoti parametrlari va sh.o').


Bir bosqichli markazlashgan boshqarishning struktura chizmasini quyidagicha tasavvur qilish mumkin (4.2-rasm):



4.2-rasm

Bu chizmada ob'ektdan boshqarish tizimiga axborot oqimini va boshqarish tizimidan ob'ektga boshqarish ta'sir signallari ko'rsatilgan.

Markazlashgan bir bosqichli boshqarish struktura chizmasida aloxida boshqarish punktlari (BP-1, BP-2, BP-3) ishlab chiqarishning aloxida bo'limlarini boshqaradi.




4.3-rasm

Bir bosqichli markazlashgan boshqarish tizimlari asosan murakkab bo'limgan ob'ektlarda yoki yaqin joylashgan ob'ektlarda qo'llaniladi.

Agar ishlab chiqarish bo'linmalarini bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lsa, unda bir bosqichli markazlashmagan boshqarish tizimlarini qo'llagan ma'qul.

Murakkab texnologik jarayonlarni boshqarishda boshqarishni optimal tashkil qilish yoki ko'p bosqichli (ierarxik) boshqarish tizimlarini qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi (4.3-rasm.).



4.4-rasm.

Alovida texnologik qurilmalar markazlashmagan holda 1-7 boshqarish punktlari yordamida boshqariladi.

Nisbatan (ma'lum) axamiyatli parametrlar ob'ektdan ikkinchi bosqich (8-10) boshqarish punktlariga yuboriladi.

Texnologik jarayonlarni qanchalik to'g'ri ketayotganini belgilovchi asosiy parametrlar uchinchi boqich (11) boshqarish punktidan boshqariladi. Boshqarishning struktura chizmalarini RTM 252. 40-76 (руководящие технические материалы минприбора) asosida bajarilishi tavsiya etiladi.

### **Boshqarish va nazorat struktura chizmalarining tarkibi**

Boshqarishning va nazorat qilishning struktura chizmalarini quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-Asosiy funksional bo'linmalarining yetarli darajada detallashtirilgan shartli belgilari, ya'ni ishlab chiqarish, sexlar, uchastkalar, bo'limlar va uskunalar bo'lishi mumkin;

-asosiy boshqarish punktlarining shartli belgilari (joyidagi operator xonalari, dispatcher xonalari);

-korxonaning asosiy va yordamchi xizmatlarining shartli belgilanishi;

-xar bir boshqarish punktida amalga oshirilayotgan asosiy funksiyalarning shartli belgilari;

-avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlariga kirgan texnik vositalarining shartli belgilari;

-ishlab chiqarish, boshqarish punktlari korxona xizmatlari orasidagi xamda boshqa TJABT va yuqori ABT bilan bog'liqlik chizmalarining shartli belgilari;

-texnik vositalar va funksiyalarning ro'yxati.

Struktura chizmalarini tuzishda mashtablarga rioya qilinmaydi.

### **Boshqarish va nazorat struktura chizmalarining bajarilishi**

Asosiy bo'linmalar va boshqarish punktlarining shartli belgilari to'rtburchak shaklida ko'rsatiladi. To'rtburchaklar gorizontal bo'yicha bir necha bo'laklarga bo'linadi. Yuqori qismida agregatlar nomlari ko'rsatiladi. Pastida bo'lim yoki uchastkalarning nomlari ko'rsatiladi. shu to'rtburchaklarning eng pastida ishlab chiqarishning nomi ko'rsatiladi.

Boshqarish punktlarini ifodalaydigan to'rtburchaklarda gorizontal bo'yicha besh bo'lakga bo'linadi:

-Yuqori qismida boshqarish punkti nomi beriladi (ishlab chiqarishning dispatcher punkti, sexning operator punkti va boshqalar),

-Ikkinci qismida qaror qabul qilishga ma'sul texnik personal ko'rsatiladi (smena dispatcheri, operatori va sh.o').,

-To'rtburchakning uchinchi qismida, ushbu punktda o'rnatilgan asosiy qurilmalarining nomlari keltiriladi (nazariy shchiti, boshqarish pulti, mnemosxema, boshqaruvchi xisoblash kompleksi (UVK), aloqa vositasi va sh.o')

-To'rtinchchi qatorda texnik vositalar funksional guruxlarining shartli belgilanishi ko'rsatiladi,

-Beshinchchi qatorda texnik vositalarning funksiyasining shartli belgilanishi ko'rsatiladi.

### **Texnik vositalarning funksional guruxlarining shartli belgilanishi.**

D - avtomatlashtirish datchiklari

S – signalizatorlar

IS – son-raqamli indikatorlar

IA – analogli indikatorlar

R – lokal rostlagichlar

RA – analogli registratorlar

KA – komanda apparatlari

SU – o'lchash qurilmalarining boshqarish paneli va stansiyalari

ZD – belgilangan qiymatni beruvchi qurilma

PR – prosessor

VZU – tashqi xotiraga oluvchi qurilma

VG – simvollarni xotiraga oluvchi qurilma

VVU – kirituvchi va chiqaruvchi qurilma

UP – pechatga chiqarish qurilmasi

USO – ob'ekt bilan aloqa o'rnatish qurilmasi

PRV – ma'lumotlarni qo'lda kiritish qurilmasi

DS – dispatcher – operator aloqasi jixozlari

PGS – ishlab chiqarishda baland ovozda gapirish qurilmasi

### **Texnik vositalar funksiyasini shartli belgilanishi**

1 – parametrlarni nazorat qilish

2 – texnologik jixozlar va ijrochi qurilmalarni masofadan boshqarish

3 – o'lhash ko'rsatkichlarini o'zgartirish

4 – uskunalarining xolatini nazorat qilish va signallash

5 – stabillovchi rostlash

6 – rostlagichlarning ishlash rejimini tanlash va zadatchikni qo'lda boshqarish

7 – ma'lumotlarni qo'lda kiritish

8 – parametrlarni registrasiya qilish

9 – texnik –iqtisodiy ko'rsatkichlarni (TEP) xisoblash

10 – ishlab chiqarishni xisobini qilish va smena ko'rsatkichlari bo'yicha kelishuv

11 – texnologik liniyani diagnostika qilish

12 – texnologik liniya yuklamasini taqsimlash

13 – alovida texnologik jarayonlarni optimallashtirish

14 – texnologik jarayonlar xolatini taxlil qilish

15 – ishlab chiqarish asosiy ko'rsatkichlarini prognoz qilish

16 – smena ishini baxolash

17 – Reja topshiriqlarining bajarilishini nazorat qilish

18 – ta'mirlash ishlarining o'tkazilishini nazorat qilish

19 – TJABTga operativ ma'lumotlarni tayyorlash va berish

20 – TJABTdan topshiriqlarni va ishlab chiqarish cheklamalarini olish

## **5-Ma'ruza. Avtomatlashirishning funksional chizmalarini loyihalash (4-soat)**

### **Reja:**

1. Avtomatlashirishning funksional chizmalarining vazifasi;

2. Texnologik jixoz va kommunikasiyalarning belgilanishi.

GOST 2.784-70 bo'yicha suyuqlik va gazlar uchun quvur o'tkazgichlarni shartli raqamli belgilanishi;

3. Avtomatlashirish va o'lhash vositalarini belgilanishi.

GOST 21.404-85:

- GOST 21.404-85 bo'yicha avtomatlashtirish va o'lchash vositalarini asosiy shartli belgilanishlari;
  - GOST 21.404-85 bo'yicha xarfli shartli belgilanishlari;
  - GOST 21.404 —85bo'yichao'lchov asboblarini funksional belgilarini ifodalovchi qosh'imcha xarfli belgilanishlar;
  - GOST 21.404 —85bo'yichasignal o'zgartirgichlar va hisoblash qurilmalarini funksional belgilarini ifodalovchi qosh'imcha xarfli belgilanishlar;
  - GOST 21.404 – 85bo'yichao'lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalari grafikli shartlibelgilarining o'lchamlari;
4. GOST 21.404-85 bo'yicha shartli belgilarni qurish misollari;
  5. Funksional chizmalarni bajarish misollari.

*Avtomatlashtirishning funksional chizmalarining vazifasi Funksional chizmalar asosiy texnik xujyat bo'lib, texnologik jarayonlarni nazorat qilish, rostlash va boshqarishning aloxida qismlarining funksional blok tuzilmasini, hamda boshqarish ob'ektini o'lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalari bilan ta'minlanganligini belgilaydi.*

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning funksional chizmalarini ishlab chiqishda quyidagi masalalarni yechish kerak:

- texnologik jixoz va jarayon xolati to'g'risida axborotni olish;
- texnologik jarayonni boshqarish uchun to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish;
- texnologik jarayon parametrlarini stabillash;
- texnologik jarayon parametrlari va texnologik jixozlar xolatini nazorat qilish va yozib borish.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish chizmasi mashina-jixozlar chizmasini o'z ichiga olib, unda shartli belgilar yordamida boshqarish organlari, avtomatlashtirishning asbob va vositalari va ular orasidagi aloqalar ko'rsatiladi.

Avtomatlashtirish sxemalarini bajarishni 2 xil varianti mavjud:

- soddalashtirilgan;
- yoyib ochib berilan.

#### **Texnologik jihozlarni avtomatlashtirish chizmalarida ko'rsatilishi:**

Texnologik jihozlar avtomatlashtirish chizmasida boshqarish organlari, elektrjixozlar va yordamchi qurilmalarning asosiy kommunikasiyalari ko'rsatilgan xolda masshtabsiz chizmaning 2/3 yuqori qismida ko'rsatiladi.

Texnologiya chizmasi GOST 2.785-70, GOST 14202-69, GOST 21106-78, GOST 2. 721-74 lardan foydalanib chiziladi.

Bu chizmalarda jixozlar konturlari 0,5mm li ingichka chiziqlar bilan, kommunikasiyalar 1-2mm qalinlikda chiziladi. chiziqlar kesishgan joylari, agar ular bir-biriga ulangan bo'lsa nuqta qo'yiladi, agar ulanmagan bo'lsa, nuqta qo'yilmaydi.

Texnologik jihozlar va kommunikasiyalar avtomatlashtirish chizmasida odatda soddalashtirilgan xolda ko'rsatilib, uning ishslash prinsipi to'g'risida aniq tasavvur berishi kerak.

Texnologik quvurlarda odatda rostlash organlarini o'rnatish joylari va texnologik parametrlarni o'lchash uchun impulslarni olish joylari ko'rsatiladi.

Aloxida xollarda texnologik jixozlarning ba’zi elementlari funksional chizmalarda, ularning nomlari ko’rsatilgan xolda, to’rtburchak ko’rinishida ko’rsatiladi yoki umuman ko’rsatilmaydi.

Suyuqlik va gazlar uchun texnologik kommunikasiyalar va quvurlar GOST 2.784 — 70 bo’yicha ifodalanadi.

Muhit xarakterini to’liqroq yoritish uchun shartli raqamli belgilanishga xarfli indeks qosh‘ilib ifodalanishi mumkin. Masalan: toza suv- 1t, quruq bug’-2q, to’yingan bug’-2t va xakozo. Quvurlarning shartli raqamli belgilanishi kamida xar 50 mm oraliqda qo’yilishi kerak.

### **O’lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarining belgilanishi**

Avtomatlashtirish chizmalarida o’lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalari GOST 21 408-85 (SPDS. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish vositalarini shartli belgilanishi) bo’yicha ko’rsatiladi.

Avtomatlashtirish chizmalarida yordamchi jihoz va qurilmalar (Rele, och‘irgich, filtr, reduktor va boshqalar) ko’rsatilmaydi.

Avtomatlashtirish chizmalarida shuningdek kompleks qurilmalar (xisoblash qurilmalari, komplekslar va sh.o’) ham ko’rsatiladi. Hisoblash qurilmalari va komplekslar GOST bo’yicha maxsus belgilanishlarga ega emas va shuning uchun ular avtomatlashtirish chizmalarida to’rtburchak ko’rinishida ko’rsatiladi. chizmaning pastki qismida (taxminan chizma balandligining 1/3 qismida), texnologik chizma pastida, to’rtburchaklarda avtomatlashtirish tizimi jixozlari ko’rsatiladi. Ularda avtomatlashtirish vositalari quyidagicha joylashtiriladi:

- joyidagi asboblar,
- shchitdagli asboblar,
- operativ shchitdagli asboblar,
- markaziy dispetcher shchitdagli asboblar,
- hisoblash qurilmasi (boshqaruva mashinalari) va komplekslar.

To’rtburchaklarni 40mm balandlikda bajarish tavsiya qilinadi. Hamma to’rtburchaklarning chap tomonidagi 15mm kenglikda ularda joylashgan asboblarning umumlashgan ifodasi ko’rsatiladi. (Masalan, “joyidagi asboblar”, “shchitdagli asboblar” va boshqalar).

Avtomatlashtirish vositalarini bir-biriga ulovchi simlar ingichka  $0,2\div0,3$ mm qalindagi chiziqlar bilan ulanadi. Ularni texnologik jixozlar va trubaprovodlar bilan kesishmagan xolda, hamda kamroq qayrilishlarsiz va kesishmasdan olib borilishi talab qilinadi.

Birinchi to’rtburchak bilan kesishishdan oldin o’lchanayotgan parametrning maksimal qiymati ko’rsatiladi. Murakkab texnologik qurilmalarning avtomatlashtirish chizmalarini bajarishda, ulovchi simlarni uzib, uzilgan joylarni bir xil arab raqamlari bilan belgilanishiga ruxsat beriladi. Bunda bu raqamlarni chapdan o’ngga ortib borishi ta’milanadi. (Qaysi signal qaerga borishini topish oson bo’lishi uchun).

chizmada xar bir o’lchovchi va rostlovchi komplektlarga tartib raqami hamda ulardagli xar bir elementga pozisiya ((nomeri) raqami qo’yiladi. Masalan, sezgir

element 1a, joyidagi asbob (signal o'zgartirgich) 1b, ikkilamchi asbob 1v, rostlagich 1g va ijrochi qurilma rostlovchi organ bilan 1d.

### **GOST 21.404-85 bo'yicha o'lchash va avtomatlashtirish vositalarini belgilanishi**

O'lchov asboblari, avtomatlashtirish vositalari, elektr qurilmalar va hisoblash texnikasi elementlari avtomatlashtirishning funksional chizmasida GOST 21.404-85 va tarmoq normativ xujjatlari asosida ko'rsatiladi.

Agar standartlarda qaysidir ko'rsatkichlarning belgilanishlari berilmagan bo'lsa, unda ularga nostandard belgilanishlarni qo'llashga ruxsat etiladi. Bunda, bu belgilanishlarni ushbu qurilmalarni xarakterli belgilari asosida bajariladi.

O'lchov asboblarining funksional belgilari bo'yicha grafikli va xarfli shartli belgilanishlarini tuzishni GOST 21.404 – 85 hisobga oladi.

Standart bo'yicha shartli belgilanishlarning ikki xil usuli belgilangan: soddalashtirilgan va yoyib berilgan.

Bir necha funksiyalarni bajarayotgan o'lchov asboblarini bir-biriga yondoshgan bir nechta aylanalar bilan ko'rsatilishi mumkin.

Soddalashtirilgan va yoyib berilgan usullar uchun grafikli shartli belgilanishlarning ko'rsatilish usullari umumiyydir.

Aylananing yuqori qismida o'lchanayotgan kattalikning xarfli belgilanishi va o'lchov asbobining funksional belgilari ko'rsatiladi.

GOST 21.404-85 bo'yicha avtomatlashtirish va o'lchash vositalarini asosiy shartli belgilanishlari

Aylananing pastki qismida pozision belgilanish ko'rsatiladi (raqamli yoki raqam-xarfli). Ushbu pozision belgilanishlar soddalashtirilgan usulda nazorat qilish yoki rostlash komplekti elementlarini nomerlash uchun, yoyib berilgan usulda komplektning alohida elementlarini nomerlash uchun ishlatiladi

- GOST 21.404 —85 bo'yicha o'lchov asboblarini funksional belgilarini ifodalovchi qosh'imcha xarfli belgilanishlar

(5.1-jadval)


Nomlanishi	Belgilanishi
Sezgir element (birlamchi o'zgartirgich)	<i>E</i>
Masofaga uzatish (oraliq signal o'zgartirgich)	<i>T</i>
Boshqarish stansiyasi	<i>K</i>
O'zgartirgich,hisoblash funksiyasi	<i>U</i>

Aylananing tepa qismidagi xarfli belgilanishlarning joylashtirish tartibi quyidagicha bo'lishi kerak: asosiy o'lchanayotgan kattalik belgilanishi; asosiy o'lchanayotgan kattalikni aniqlovchi belgilanish (kerak bo'lganda); O'lchov asbobi funksiyasini belgilanishi.

O'lchov asbobi funksiyasi bir asbobda bir nechta bo'lganda, ular ham ma'lum ketma-ketlikda joylashtiriladi.

Bosimlar farqini o'lchovchi, yozib boruvchi va avtomatik rostlovchi asbobni shartli belgilanishini qurish misoli 5.1. rasmida keltirilgan

O'lchov asbobini shartli belgilanishlarini ko'rsatishda, o'lchov asbobining hamma funksional belgilarini ko'rsatilishi shart emas. shartli belgilarning faqat ushbu chizmada ishlatilayotganlarinigina ko'rsatish kifoyadir. Masalan, ko'rsatuvchi va yozib boruvchi o'lchov asbobida ko'rsatish funksiyasi ishlatilmayotgan bo'lsa, unda TIR o'rniga TR ko'rsatilishi, RIR o'rniga RR ko'rsatilishi kerak.



*5.1-rasm. GOST 21.404-85 bo'yicha o'lchov asboblarining shartli belgilanishini ifodalash prinsipi*

5-Rasm. Bosimlar farqini o'lchashga, registrasiya qilishga va avtomatik rostlashga mo'ljallangan o'lchov asbobini shartli belgilanishiga misol.

Sathni signallashni shartli belgilashda, uning signallash bloki bo'lib kontakt qurilma va signal lampalar bilan ta'minlangan shkalasiz o'lchov asbobini quyidagicha yozish mumkin:

- LS — agar o'lchov asbobi faqat satxni chetlashishini masofadan signallashga, nasosni yoqib och 'irishga va blakirovkalashga ishlatilsa;
- LA — agar faqat o'lchov asbobining signal lampalaridan foydalanilsa;
- LSA — agar yuqoridagi ikkala funksiya qo'llanilsa;
- JLC — agar o'lchov asbobi satxni pozision rostlash uchun ishlatilsa.

GOST 21.404-85 bo'yicha signal o'zgartirgichlar va hisoblash qurilmalarini funksional belgilarini ifodalovchi qosh'imcha xarfli belgilanishlar 5.-jadvalda keltirilgan.

## 5.2-jadval

Nomlanishi	Signal turi
Signal turi:	
elektr	E
pnevmatik	P
gidravlik	G
Signal turi:	
analogli	A
diskret	D

Avtomatlashtirish va o'lchash vositalarini belgilanishi.

GOST 21.404-85:

- GOST 21.404-85 bo'yicha avtomatlashtirish va o'lchash vositalarini asosiy shartli belgilanishlari;
  - GOST 21.404-85 bo'yicha xarfli shartli belgilanishlari;
  - GOST 21.404 —85bo'yichao'lchov asboblarini funksional belgilarini ifodalovchi qosh'imcha xarfli belgilanishlar;

## **GOST 21.404 – 85 bo'yichao'lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarining grafikli shartlibelgilarining o'lchamlari**

GOST 21.404 — 85 bo'yicha grafikli shartli belgilanishlarning o'lchamlari 6-jadvalda keltirilgan.

Grafikli shartli belgihanishlar chizmalarda 0,5 — 0,6 millimetrli chiziqlar bilan bajariladi.

Belgilanish ichidagi gorizontal bo'lish chizig'i va ulanish chiziqlari 0,2 — 0,3 mm qalinlikdagi chiziqlar bilan chiziladi.

Ba'zi asoslangan xolatlarda o'lchov asboblari va birlamchi o'zgartirgichlar aylana o'rniiga elips ko'rinishidagi belgilanishlardan foydalaniladi.

### **5.3-jadval**

1) A xarfi shartli belgilanishlarning soddalashtirilgan usulida va shuningdek, yoyib berilgan usulda, agar signal lampa o'lchov asbobining o'zida o'rnatilgan bo'lsa faqat signallash vazifasi uchun qo'llaniladi. Boshqa hamma xolatlarda o'lchov asbobining kontakt qurilmasini belgilash uchun S xarfidan foydalaniladi.

O'lchanayotgan parametrlarning chegara qiymatlari signallanayotganda buni  $H$  va  $L$  xarflarini qosh'ib konkretlash kerak. Bu xarflar grafik belgilanish tashqarisiga, undan o'ng tomonda ko'rsatiladi.

S xarfidan rostlash vazifasini belgilashda (pozision rostlash) foydalanish mumkin emas;

2) o'lchanayotgan kattalikga aniqlik kiritish uchun, o'lchov asbobi tasvirining o'ng tomonida o'lchanayotgan kattalikning nomi yoki simvoli ko'rsatilishi kerak, masalan, «kuchlanish», «tok»,  $rN$ ,  $O_2$  va shunga o'xshash;

3) kerak bo'lganda o'lchov asbobi tasvirining yonida radioaktivlik turini ko'rsatilishi mumkin, masalan  $\alpha$ -,  $\beta$ - yoki  $\gamma$ -nurlar;

4) U xarfi bir nechta xar xil kataliklarni o'lchovchi asbobni belgilash uchun qo'llanilishi mumkin. O'lchanayotgan kattaliklar turiga o'lchov asbobi yonidagi yozuvlarda yoki chizma maydonida aniqlik kiritilishi mumkin;

5) ushbu standartda hisobga olinmagan kattaliklarni belgilash uchun rezerv xarflardan foydalanish mumkin. Ko'p marotaba ishlatilayotgan kattaliklarni bitta rezerv xarf bilan belgilash kerak bo'ladi.

Bir marotaba yoki kamdan kam ishlatiladigan belgilanishlar uchun X xarfini qo'llash mumkin. Rezerv xarfli belgilanishlarni qo'llashga majbur bo'lginimizda, ularga chizmada aniqlik kiritilishi kerak. Bitta xujyatda bitta rezerv xarfni xar xil kattaliklarni belgilash uchun qo'llash mumkin emas;

6) qosh'imcha qiymatlarni belgilashda bosh xarflarni D, F, Q kichik xarflar d, f, q bilan almashtirish mumkin;

7) o'lchov asbobining shartli belgilanishi aylana ichiga sig'magan ba'zi xolatlarda, bu yozuvlarni aylana tashqarisida ko'rsatilishi mumkin;

8)ye xarfi sezgir elementlarni belgilash uchun qo'llaniladi, ya'ni, birlamchi o'zgartirishga ishlatiladigan qurilmalar. Bunga misol bo'lib termoelektrik termometr (termopara), qarshilik termometri, pirometr datchiklari, sarf o'lchagichlarning toraytirish qurilmalari, induksion sarf o'lchagichlarning datchiklar va shunga o'xshaganlar kiradi;

9) T xarfi oraliq signal o'zgartirishni-signalni masofaga uzatishni ifodalaydi. U axborotni masofaga uzatuvchi asboblarni belgilashda ishlatiladi, masalan shkalasiz signal o'zgartirgichli manometr, difmanometr, manometrik termometr va boshqalar;

10) K xarfi boshqarish stansiyasi bor asboblarni belgilashda ishlatiladi, ya'ni, boshqarishni avtomatik yoki qo'lda boshqarishga yoqib och'iruvchi qurilmasi bor asboblar;

11) Y xarfi yordamida signal o'zgartirgichlar (elektropnevmatik va pnevmoelektrik, hamda TermoEDSni va elektr qarshiligini tokli signalga aylantiruvchi) va xisoblash qurilmalarini belgilash qabul qilingan;

12) shartli belgilashda qosh‘imcha xarflarni qo’llanilish tartibi quyidagicha: birinchi, o’lchanayotgan kattalikni belgilovchi xarf yoziladi, keyin, qosh‘imcha xarflardan biriye, T, K yoki Y.

Masalan, temperaturani birlamchi o’zgartirgichini (termoelektrik termometr, qarshilik termometri va boshqalar) TE, sarfni birlamchi o’zgartirgichini (sarfnii toraytirish qurilmasi, induksion sarf o’lchagichlarning datchigi va boshqalar) FE, bosimni signal o’zgartirgichini RT va sarfni signal o’zgartirgichini FT orqali belgilanadi;

13) signal o’zgartirgichlar yordamida elektr signallarni pnevmatik signalga va pnevmatik signallarni elektr signalga aylantirilishi o’lchov asbobini grafik belgilanishining o’ng tomonida ko’rsatiladi;

14) avtomatlashtirish vositalari komplektini shartli belgilashda, komplektga kiruvchi xar bir asbobni belgilashdagi birinchi xarf o’lchalinayotgan kattalikning nomlanishi hisoblanadi. Masalan, temperaturani nazorat qilish va rostlash tizimiga kiruvchi birlamchi o’zgartirgich TE ko’rinishida, ikkilamchi yozib boruvchi asbobni TR, rostlash blokini TS ko’rinishida belgilanadi.

GOST 21.404-85 bo'yicha shartli belgilarni tuzishda quyidagilarni hisobga olish kerak: alohida bloklar ko'rinishidagi qo'lida bajariladigan operasiyalar uchun mo'ljallangan hamma avtomatlashtirish vositalarini belgilashda, qaysi o'lchash komplektiga kirishiga qaramasdan, birinchi xarf bo'lib N xarfni ishlataladi. Masalan, elektr zanjirlarini yoqib och'irishga mo'ljallangan qurilma HS, masofadan boshqarish paneli NS, masofadan boshqarish knopkasi N ko'rinishda belgilanadi; bilvosita usulni qo'llab sifat ko'rsatkichlarini o'lchashda, o'lchash komplektining birlamchi o'lchagichini belgilashdagi birinchi xarf ikkilamchi asbobni belgilashdagi birinchi xarfdan farqli bo'lishi mumkin. Masalan, qaynash xolatidagi eritma konsentrasiyasini qaynash temperaturasi bo'yicha aniqlash mumkin. Bunda, funksional chizmada temperaturani o'lchovchi qarshilik termometri TE va ikkilamchi asbob QIR deb belgilanadi.

## **6 va 7-Ma'ruza. Prinsipial elektr va pnevmatik chizmalar. Boshqarish, signallah va ximoya chizmalari. (6-soat).**

### **Reja:**

1. Prinsipial elektr chizmalar. Boshqarish, signallah va ximoyalash chizmalari.
2. Prinsipial elektr chizmalarini loyihalash;
3. Struktura va prinsipial boshqarish va signallah chizmalarini ishlab chiqish (GOST 2.710-81. Elementlarni prinsipial elektr chizmalarida belgilanishi).
4. Prinsipialelektr chizmalarini bajarishga misollar:
  - elektr yuritmalarini boshqarishning prinsipial chizmalari;
  - granulalarni bunkerga yuklashning prinsipial boshqarish chizmalari;
  - texnologiksallashningprinsipial chizmasi.
5. Prinsipialpnevmatik chizmalar.

## **Prinsipial elektr va pnevmatik chizmalar**

Prinsipial chizmalarda ularning xar bir elementi ma'lum bir vazifalarni (funksiyalarni) bajaradi (rezistr, transformator, chizmalar asosida loyihaning boshqa chizmalari bajariladi (shchitning umumiyo ko'rinishi, montaj chizmalari, tashqi ulanishlar chizmasi). Boshqarish, signallash va manba prinsipial elektr chizmalari mavjud. Boshqarish va signallash chizmalari bitta prinsipial chizmada berilishi mumkin.

Prinsipial chizmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- chidamliligi;
- xavfsiz ishlashi;
- ishlatishga (ekspluatasiyaga) qulayligi;
- iqtisodiy samarali bo'lishi.

### **Boshqarish chizmalar**

Bajarayotgan vazifalariga qarab boshqarish chizmalari bo'lishi mumkin:

- mexanizmlar, potok (oqim) transport tizimlarining elektr yuritmalarini boshqarish chizmalari;
- rostlovchi va berkituvchi (zapornye) qurilmalar elektr yuritmalarini boshqarish chizmalari;
- davriy ishlovchi texnologik agregatlarni dasturiy boshqarish chizmalari;
- joyidan va masofadan boshqarish bo'lishi mumkin.

### **Signallash chizmalar**

Bajarayotgan vazifalariga qarab signallash chizmalari bo'lishi mumkin:

- texnologik signallash chizmalari;
- ishlab chiqarish xolatlarini signallash chizmalari (mashinalarning ishchi organlarining xolati to'g'risida xabar beruvchi, yoqilgan-och'irilgan, ochiq-yopiq);
- topshiriqlarni bajarilishini signallash chizmalari;
- yong'in xavfsizlik signallash chizmalari;
- qorovul signallash chizmalari.

Signallash chizmalarida quyidagi signallash tiplaridan foydalanish mumkin:

- normal rejim signal;
- ogoxlantiruvchi signal;
- avariya xolati signali.

Birinchisi, odatda ishlab chiqarishni signallashda ishlatilib, normal xolat to'g'risida ma'lum beradi.

Ikkinchisi, parametrni normal (rejim) xolat chegarasidan chiqib, yo'l qo'yilishi mumkin lekin maqsadga muvofiq bo'limgan chegarada ekanligidan xabar beradi.

Uchinchisi, avariya signali hisoblanib, bunda parametr yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaradan o'tib, yo'l qo'yilishi mumkin bo'limgan chegaraga o'tganligini va tezda operator aralashishini talab qiladi.

### **Himoyalash chizmalar**

Bu chizmalar avariyanı oldini olish maqsadida jarayonni nazorat qilib borib, avariya signallarini beradi va qurilmalarni uchiradi yoki ularning ishlash rejimlarini o'zgartiradi.

Boshqarish va signallashning prinsipial elektr chizmalarini quyidagi ketma-ketlikda loyihamanadi:

- chizmaning ishlash algoritmi tuziladi;
- boshqarish va signallashning struktura chizmasi ishlab chiqiladi;
- struktura chizmasidan prinsipial chizmaga o'tiladi.

### **Elektryuritmalar ishini boshqarish algoritmi**

Masalan, quyish mashinasi bunkeriga polietilen granulalarini yuklashda, bunkerdagи granula satxi pastki chegaradan pastga tushmasligi kerak (quyish mashinasi uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun), hamda tepe chegaradan oshib ketmasligi kerak (granulalar atrofga toshib sochilib ketmasligi uchun). YA'ni granula satxi tepe chegaragayetganda pnevmotransport elektr yuritmasi och'irilishi va satx pastki chegaradan pastga tushsa pnevmaotransport elektr yuritmasi ishga tushirilishi kerak.

### **Struktura chizmasini ishlab chiqish**

Struktura chizmasini tayyorlashda shunday chizma ishlab chiqish talab qilinadiki, unda iloji boricha kam elementlardan foydalanilgan xolda uning ishlashining algoritmiga mos chizmani ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Boshqarish chizmalarining struktura chizmasini chiqishda intuktiv, formallahsgan va kombinasiyali usullari mavjud.

Birinchisini odatda sodda xolatlarda analogikyechimlardan foydalangan xolda tayyorlanadi.

Murakkab chizmalarni tayyorlashda matematikaning formal logikasi apparatidan foydalangan xolda, struktura chizmalarini sintez qilishning formallahsgan usullaridan foydalilanildi.

Kombinasiyali usullar ham mavjud. Bunda, avval intuktiv ravishda chizma tanlanadi, so'ngra logik fuksiyalardan foydalanib, olingan chizmani analitik ifodasi yozib chiqiladi.

### **Prinsipial elektr chizmalarga (PEK) o'tish**

Boshqarish va signallashning struktura chizmalari ishlab chiqilgandan so'ng, prinsipial chizmalarga o'tiladi. Manba kuchlanishi tanlanadi va chizma apparatlar bilan taminlanadi. chizma o'zgaruvchan tok mabaasi kuchlanishi 220v, 380v o'zgarmas tok kuchlanish 60v, 48v, 24v, 12v bo'lishi mumkin.

chizma apparaturasini ishlatilayotgan manbaga qarab, bino xarakteristikasiga qarab, talab qilinayotgan kontaktlar soniga qarab tanlanadi.

Boshqarish va signalashning prinsipial elektr chizmalarida quyidagilar ko'rsatilishi mumkin.

- boshqarish, signallash o'lchash rostlash zanjirlari va kuch (silovye) zanjirlari;

- apparatlarning boshqa chizmalarda foydalanilayotgan kontaktlari va boshqa chizmalarda ishlatilayotgan apparatlarning kontaktlari;

- chizmalarning qabul qiluvchi elementlari kontaktlarining yoqilishi diagramma va jadvallari;

- Jixozlarning ishlash siklogrammasi

## **Elementlar ro'yxati va asosiy yozuvlar**

Elementlar prinsipial chizmalardaye SKD bo'yicha GOST 2.710-81 ga asosan belgilanadi. Hamma apparatlar chizmada normal xolatda ko'rsatiladi (masalan, rele kontaktlari boshqarish o'ramiga signal berilmagan xolatda ko'rsatiladi).

Prinsipial elektr chizmalarining hamma elementlari uch qismdan iborat bo'lgan pozision belgilarga ega bo'ladi.

Belgilashning birinchi qismi bir yoki ikki xarfli kodda bajariladi.

Ikkinci qismida elementning tartib raqami keltiriladi.

Belgilashning uchinchi qismi elementning funksional vazifasiga moslanadi. Masalan, R2N-2-rezistor, o'lchovchi sifatida ishlatilayotgan. (GOST 2.710-81).

R3F-3-rezistor, qisqa tutashdan saqlagich sifatida ishlatilayotgan elektr zanjirlarni markirovka qilish GOST 2.709-72 asosida amalga oshiriladi. Avtomatlashirish tizimlarida markirovkalash uchun 3 gurux sonlar qo'llaniladi. Boshqarish, nazorat qilish va rostlash zanjirlarini 1÷399 1001-1399, 2001-2399 raqamlari bilan markirovkalaniladi. Signallash zanjirlari 400-799; 2800-2999 raqamlari bilan markirovkalanadi. Elektr manba zanjirlari 800-999; 1800-1999 raqamlari bilan markirovkalanadi.


## **Elektryuritmalarini boshqarish chizmalari va ularning boshqarishning prinsipial chizmalari**

6-rasmda elektryuritmalarini boshqarish chizmasi keltirilgan. Manbani boshqarish zanjiri fazalararo kuchlanish 380v bilan yoki faza kuchlanishi bilan amalga oshiriladi.


Elektryuritmani boshqarishning prinsipial chizmasi 6.1-rasmda keltirilgan. Bu chizmada quyidagi belgilanishlardan foydalanilgan:

SV1 va SV2 – yoqib och'iruvchi knopkalar, KM-kontaktor magnitli, KK-issiqlik relesi, FU-qisqa tutashdan saqlagichlar, QS-rubilnik.

Elektr yuritma yoquvchi SV1 va och'iruvchi SV2 knopkalar yordamida ishga tushiriladi va och'iriladi. SV1 bosilganda KM boshqarish o'ramidan tok o'tib, kontaktor o'zagi magnitlanib, yakorni tortadi va KM normal uziq kontaktlarni ulaydi. Bunda ulovchi kontakt SV1ning blokirovkalovchi kontakti va elektr yuritmaga manba'ni ulovchi KM kontaktlar ham ulanadi. Elektr yuritma ishga tushadi. Elektr yuritmani to'xtatish uchun SV2 och'iruvchi knopka bosilib, KM ga manba uziladi. Bunda blokirovkalovchi KM kontaktlari ham uziladi. Elektr yuritma ishdan to'xtaydi. Elektr yuritmaga yuklama oshib ketganda, elektr yuritmani kuyishdan saqlash uchun, issiqlik releleri ishga tushadi va manba'ni uzadi. Elektr yuritmani qayta ishga tushirish uchun yoquvchi SV1 knopka bosilib, KM kontaktori zanjiri ulanadi.




6.1-rasm. Mexanizmlarning elektr yuritmalarini boshqarish chizmalari.



6.2-rasm. Mexanizmlarning elektr yuritmalarini boshqarish chizmalari va ularni boshqarishning prinsipial chizmasi.


### Bunkeriga granulalarni yuklashni boshqarishning prinsipial chizmasi

Quyish mashinasi bunkeriga granulalarni yuklashni boshqarish chizmasi 6.3-rasmida keltirilgan.



*6.3-rasm. Quyish mashinasi bunkeriga granulalarni yuklashni avtomatlashтирish chizmasи.*

Bu chizmada granula zaxirasi saqlanadigan bunkerdan granula pnevmotransport yordamida quyish mashinasi bunkeriga berilishi ko'rsatilgan. Ushbu chizmaning ishlash algoritmi quyidagicha: quyish mashinasiga beriladigan granulalar avval bunkerga beriladi. Bunkerda muntazam granula bo'lleshini ta'minlash kerak. Buning uchun bunkerning pastki va tepe chegaralariga sig'imli satx o'lchagichning datchiklari o'rnatilgan. Granula pastki datchikgayetganda pastki satx kontakti SL1 ulanadi. Granula satxi tepe chegaragayetganda tepe satx kontakti SL2 ulanib, magnitli yuritgich KM boshqarish o'ramidan tok o'tib o'zining normal ulangan kontaktlari yordamida pnevmatransport elektr yuritmasini och'iradi. Quyish mashinasi bunkeriga granula kelishi to'xtaydi. Natijada granulalar bunkerdan toshib sochilib ketishining oldi olinadi. Quyish mashinasi uzluksiz ishlashi natijasida bunkerdagи granulalar kamayadi va pnevmotransport yana granula satxi pastki chegaradan pastga tushganda KM boshqarish o'ramidan tok o'tmaydi va bunda uning normal ulangan kontaktlari orqali pnevmatransport elektr yuritmasiga elektr manba ulanadi. Bunkerga yana granula kelishni boshlaydi. Ushbu boshqarish tizimi granulalarni toshib sochilib ketishidan va bunkerda granulalar qolmaganda granulalar oqimi uzilib qolib, ko'p brak chiqishining oldini oladi.



6.4-rasm. Quyish mashinasi bunkeriga granulalar yuklashni boshqarish va signallashning prinsipial elektr chizmasi.


6.4- rasmda quyish mashinasi bunkeriga granulalarni yuklashni boshqarish prinsipial elektr chizmasi keltirilgan. Bu chizmada shuningdek granulalar satxining chegara qiymatlarini signallash ham ko'rsatilgan.

chizmada quyidagi boshqarish elementlaridan foydalanilgan: SL1, SL2-texnologik kontaktlar; SB1,SB2-knopkali och'irgich; KM-kontaktor; KM1, KM2, KM3-kontaktor kontaktlari; H1 H2-signal lampalar.

Texnologik signallashning prinsipial elektr chizmasi 5-rasmda keltirilgan.

Texnologik kontakt SQ1 ulanganda, K2 relening normal ulangan kontakti ulanib, K1 rele boshqarish o'ramlaridan tok o'tadi va bu uning normal ochiq kontaktlari K1larining ulanishiga sabab bo'ladi. Natijada, tovushli signal NA ishlaydi, hamda VD2 diod orqali K2 rele zanjiri ulanadi K2 normal ochiq kontaktlari yordamida zanjir blokirovkalanadi. Rele K2 ishlaganda, o'zining signallash lampasi N1 zanjiridagi K2 normal ochiq kontaktlarini ulab signal lampani N1 yoqadi va normal yopiq kontakt K2 ni uzib, K1 relesi zanjirini SQ1 kontaktidan uzadi. SB2 knopka bosilishi bilan K1 rele zanjiri uzilib NA och'adi.

Xuddi shunday boshqa texnologik parametrlar chegara qiymatlarga kelganda texnologik kontaktlar (SQ2 va boshqalar) ulanib, signal lampalari yonadi.



6.5-rasm. Signallashning prinsipial elektr chizmasi. (signallarni sinash imkoniyati bor chizma).

Signallash chizmasi quyidagicha ishlaydi:

Signal lampalarini ma'lum vaqt oralig'ida tekshirib turish uchun tekshirish knopkasi SB1 bosiladi. Bunda ham rele K1 zanjiri ulanib, rele K1 ishlaydi va o'zining normal ochiq kontakti orqali hamma signal lampalar zanjirini K2, K3 normal yopiq kontaktlar yordamida yoqadi. Agar birorta lampa yonmasa, unda bu lampa kuygan bo'ladi va uni almashtirish kerak bo'ladi. Bu tekshirish signalidan so'ng, signaldan qaytish knopkasi SB1 bosiladi va bunda K1 relesi zanjiri uziladi. Hamma lampalar och'adi.

### Prinsipial pnevmatik chizmalar (PPch)

PPch PEch o'xshab, osh'a ketma ketlikda ishlanadi. Undan farqi manba toki va kuchlanish turini tanlanmaydi. PPch kodning apparat-element bazasi membranali yoki membrana- "struyniy" bo'lishi mumkin.

Pnevmatik elementlar kontaktsiz mantiqiy elementlar hisoblangani uchun sturktura chizmalarini tuzishda formallahgan yoki kombinasiyali usullar qo'llaniladi. Elementlarni ifodalashye SKD standartlariga mos kelishi kerak.

Pnevmatikada manbani ( $0,14 \text{ MPa}$ ) qalinligi  $1\text{mm}$  bo'lgan vertikal chiziq bilan ifodalanadi. Asboblar va elementlarga ulanishni gorizontal chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Pnevmatik ulanishlar uchastkalarini elektr zanjirlarga o'xshab oldiga nol qo'yib markirovkalanadi. Pnevmatikada ham boshqarish, nazorat qilish va rostlash zanjirlarini  $01\div0399$ ;  $01001\div01399$ ;  $02001\div02399$  raqamlari bilan, signallash zanjirlarini  $0400\div0799$ ;  $01400\div01799$ ;  $02400\div02799$  raqamlari bilan va

manba zanjirlarini 0800÷0999; 01800÷01999; 02800÷02989 raqamlari bilan markirovkalanadi.

## **8-9-Ma’ruza. Elektr va pnevmatik manba tizimlarini loyixalash (6-soat).**

### **Reja:**

1. Elektr manba tizimlarini loyixalash:
  - Manbani tanlash;
  - Manba tarmog’ini loyihalash;
  - Fazalar sonini va simlarni tanlash;
  - Ximoyalash va boshqarish qurilmalarini tanlash va joylashtirish;
  - Taqsimlash tarmog’ini loyihalash;
  - Ximoyalash va boshqarish qurilmalarini tanlash.
2. Prinsipial elektr manba chizmalarini bajarishga misollar.
3. Pnevmo manba tizimlarini loyihalash:
  - pnevmo manba tizimlari elementlari;
  - pnevmo qabul qilgichlarning individual, gruppali va markazlashgan ulanish turlari.
4. Pnevmo manba tizimlarini bajarishga misollar.

### **Elektr manba tizimlarini loyihalash**

Elektr manba tizimlarini loyihalashni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

- manbani tanlash;
- avtomatlashtirish tizimlarining manba shchitlari va yig’ilmalarini tanlash va joylashtirish;
- Manba tarmog’ini loyixalash;
- taqsimlash tarmog’ini loyixalash;
- elektr manba prinsipial chizmasini bajarish.

### **Manbani tanlash**

Elektr manba tizimi manbasini asboblarni normal ishlashini ta’minlovchi kuchlanish va quvvatiga mos ravishda tanlanadi. Odatda, o’lchov asboblariga berilayotgan manbaning o’zgarishi nominal qiymatdan -5÷+10%ga ruxsat beriladi.

Ta’minlash va taqsimlash tarmog’lariningboshqarish va ximoyalash apparatlarini (rubilniklar, avtomatlar, qisqa tutashdan saqlagichlar) manba shchitlari va yig’ilmalariga joylashtiriladi.

Elektr yuritmalarini va asboblar yuklamalari nisbatiga qarab, elektr yuritmалarga manbani aloxida (elektr yuritmalar quvvati yuqori bo’lganda) yoki birga bitta manba shchiti va yig’ilmasidan amalga oshirish mumkin.

### **Manba tarmog’ini loyihalash**

Manba tarmog’ini loyixalash quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- Kuchlanishni, faza va simlar sonini va manba tarmog’i konfigurasiyasini tanlash;

- zaxira masalasini xal qilish;
- boshqarish va ximoya apparatlarini joylashtirish.

Elektr manba tizimlarida odatda uch fazali o'zgaruvchan tok (380/220v kuchlanishli yoki 220/127v ham bo'lishi mumkin) qo'llaniladi.

Manba tarmog'i uchun fazalar va simlar sonini ushbu tizimdagi avtomatlashtirish vositalari va asboblari turiga qarab tanlanadi.

Bir fazali elektr qabul qiluvchilar uchun bir fazali ikki simli (fazanol) va ikki fazali (faza-faza) tarmoqlar ishlatiladi.

Agar tarmoqga yuklama juda katta bo'lsa uch fazali manba tarmoqlari ishlatiladi. shuningdek, uch fazali elektr qabul qiluvchilar uchun ham uch fazali tarmoqlar ishlatiladi.

### **Boshqarish va himoya apparatlarini tanlash va joylashtirish**

Elektr manba tizimlarida boshqarish apparatlari sifatida rubilniklar, paketli och'irgichlar tumblerlar ishlatiladi. Avtomatlar boshqarish va ximoya funksiyalarini barobar bajaradilar.

Saqlagichlar tarmoq va aloxida elektr qabul qiluvchilarni qiqsqa tutash va ortiqcha yuklamalardan ximoya qilish uchun ishlatiladi. Saqlagichlili rubilniklar avtomatlardan sodda va arzon bo'ladi. Bu apparatlar manbasi ulangan joyda va shchit va avtomatlashtirish tizimlarining manba yig'inmalarga kirishda o'rnatiladi.

### **Taqsimlash tarmog'ini loyihalash**

Elektr manba tizimini taqsimlash tarmog'ini loyixalash manba tarmog'ini loyixalashdagi operasiyalar kabi amalga oshiriladi. Xar bir elektr qabul qiluvchi shchit yoki manba yig'ilmasiga aloxida rodial chiziq bo'ylab ulanadi.

Kuchlanishni tanlash manba tarmog'ini loyihalashdagidek. shchitlarni stasionar yoritish uchun 220v kuchlanishdan foydalaniladi. shkafl shchitlarda tor joyda ishlarni bajarishda 36v yoki 12v kuchlanishdan foydalaniladi. Ba'zi asboblarga manba transformatorlar orqali beriladi.

### **Himoya va boshqarish apparatlarini tanlash**

Taqsimlash tarmog'ida ko'pincha paketli och'irgichlar, saqlagichlar ishlatiladi.

Avtomatlar qisqa tutashish toklariga sezgir bo'lsa qo'llaniladi.

Agar asbobning o'zida och'irgich va saqlagichlari bo'lsa, unda unga ximoya va boshqarish apparatlari o'rnatilmaydi.

Elektr yuritmalar, ijrochi qurilmalarning manba zanjirida ximoya va boshqarish apparatlari sifatida rubilnik, saqlagich, magnitli yoquvchi yoki avtomat va magnitli yoquvchilar ishlatiladi.

### **Manba prinsipial elektr chizmalarini bajarish**

Manba prinsipial elektr chizmalar manba va taqsimlash tarmoqlari uchun aloxida yoki bitta chizmada berilishi mumkin.

Manba tarmog'i chizmasida ximoya va boshqarish apparatlari ko'rsatiladi. Apparatlar aloxida xarf-raqam belgilanish, kuchlanishning nominal qiymati ko'rsatiladi.


Taqsimlanish zanjirlari chizmasida manbaning kirishi va chiqishlarni ko'rsatiladi. Hamda elektr qabul qiluvchilarga, ximoya va boshqaruv apparatlariga,

transformatorlarga, manba yoritish lampalariga chiqishlar ko'rsatiladi. chizmaning pastki qismida jadval berilib, ushbu manba shchitidan unda-elektr qabul qiluvchilar ro'yxati keltiriladi, yana spesifikasiya bo'yicha pozisiya nomerlari, quvvati, kuchlanishi va o'rnatilish joyi ko'rsatiladi. shuningdek elementlarning xarfli-raqamli belgilanishlari ko'rsatiladi. Manba chizmasidagi hamma zanjirlar markirovkalanadi. shartli belgilanishlar, xarfli belgilanishlar xuddi boshqarish va signallah chizmalaridagidek GOST 2.710-81, GOST 2.755-87, GOST 2.747-69, GOST 2.755-76 bo'yicha amalga oshiriladi.

Quyida (29 va 30-rasmlarda) bir fazali manba (220v) va uch fazali manba tarmog'i uchun zaxira manba zanjirining avtomatik ulanish chizmalarini keltirilgan.

Bir fazali manba (220v) uchun zaxira manba zanjirini avtomatik ulanish chizmasi (rasm 8.1).

Bu chizmada taqsimlanish tarmog'iga manba manba tarmog'inining asosiy manba tarmog'idan va unda kuchlanish bo'lmay qolganda zaxira manba tarmog'idan berilishi ta'minlangan. Buning uchun asosiy manba tarmog'iga ulangan magnitli yuritgich PM1 va zaxira manba tarmog'iga ulangan magnitli yuritgich PM2 va ularning kontaktlaridan foydalaniladi. Asosiy manba tarmog'ida kuchlanish mavjud bo'lsa, PM1 ishlab, o'zining normal ochiq PM1 kontaktlarini ulaydi va taqsimlanish manba tarmog'iga kuchlanish beriladi. Asosiy manba tarmog'ida kuchlanish bo'lmay qolsa, PM1 boshqarish o'ramiga kuchlanish berilmaydi va uning normal ochiq kontaktlari PM1 uziladi, zaxira manba tarmog'idagi normal yopiq PM1 kontakti esa ulanib, zaxira manba tarmog'idagi rele PM2 ishlaydi va o'zining normal ochiq PM2 kontaktlarini ulab, taqsimlanish tarmog'iga zaxira manba tarmog'ini ulaydi.




8.1- rasm. Bir fazali manba uchun zaxira manba zanjirini avtomatik ulanish chizmasi:

Uch fazali manba uchun zaxira manba zanjirini avtomatik ulanish chizmasi (8.2 - rasm).

Uch fazali manba tarmog'ida ham zaxira manba tarmog'ini ulanishi bir fazali manba tarmog'iga o'xshash bo'ladi.

Bu chizmada taqsimlanish tarmog'iga manba manba tarmog'inining asosiy manba tarmog'idan va unda kuchlanish bo'lmay qolganda zaxira manba tarmog'idan berilishi ta'minlangan. Asosiy manba tarmog'inining biror fazasida kuchlanish bo'lmay qolsa, uch fazali kuchlanish relesi RN1 och'ib, asosiy manba tarmog'iga ulangan magnitli yuritgich PM1 zanjirini uzadi va bunda uning asosiy manba zanjiridagi normal ochiq kontaktlari PM1 uzilib, asosiy manba zanjirini uzadi, zaxira manba tarmog'idagi normal yopiq PM1 kontakti esa ulanib, zaxira manba tarmog'idagi magnitli yuritgich PM2 ishlaydi va o'zining normal ochiq PM2 kontaktlarini ulab, taqsimlanish tarmog'iga zaxira manba tarmog'ini ulaydi. Asosiy manba zanjiridagi hamma fazalarda kuchlanish paydo bo'lishi bilan, yana magnitli yuritgich PM1 zanjiri ulanib, zaxira manba tarmog'idagi magnitli yuritgich PM2 zanjirini uzadi va asosiy manba tarmog'ini ulaydi.




8.2 - rasm. Uch fazali manba uchun zaxira manba zanjirini avtomatik ulanish chizmasi.

8.3- rasmida elektr manba tizimlarini loyixalash bir fazali manba bilan ta'minlash misolida keltirilgan.

Boshqarish shchitlarida o'rnatilgan avtomatlashirish vositalarini elektr manba chizmasini bajarish misoli:

Bu chizmada taqsimlanish tarmog'iga manba manba tarmog'ining asosiy manba tarmog'idan rubilnik SF1, qisqa tutashdan saqlagich FU1 va magnitli yuritgich PM1ning normal ochiq kontaktlari PM1 orqali beriladi. Unda kuchlanish bo'lmay qolganda zaxira manba tarmog'idan rubilnik SF2, qisqa tutashdan saqlagich FU2 va magnitli yuritgich PM2ning normal ochiq kontaktlari PM2 orqali berilishi ta'minlanadi. Manba taqsimlanish tarmog'i orqali elektr manba istimolchilariga rubilniklar (SA1, SA2, SA3, SA4, SA5 va SA6), qisqa tutashdan saqlagichlar (FU2, FU3, FU4, FU5, FU6, FU7, FU8, FU9) va zaruriyatiga qarab, transformatorlar (TV1, TV2) hamda stabilizator GA orqali beriladi.

chizmaning pastki qismidagi turburchaklarning tepe, birinchi qatoridagi kataklarda istimolchilarning avtomatlashtirishning funksional chizmasidagi pozisiya raqamlari ko'rsatiladi, ikkinchi qatorda avtomatlashtirish vositalarining tiplari keltiriladi, uchinchi qatorda ularga beriladigan manbaning nominal kuchlanishi, va to'rtinchi qatorda istimolchilarning istimol qiladigan elektr quvvati ko'rsatiladi.



8.3 – rasm.

## Pnevmatik manba tizimini loyixalash

Pnevmanba tizimiga pnevmatik manba beruvchi qurilma, havo yig'uvchi idishlar, taqsimlash kollektorlari, kollektorlar va pnevmo qabul qiluvchilarini ulovchi xavo yuruvchi trubkalar, bosim reduktorlari, filtrlar manometrlar, berkituvchi va ochib yozuvchi armaturalar kiradi. Pnevmatik manbani ishchonchli va aniq ishlashi xavo sifatiga bog'liq. shuning uchun u oldindan xavoni quritish va tozalash qurilmasida tozalanib, quritiladi. Pnevmatik manba tizimini loyixalash uchun pnevmo qabul qiluvchilar manbasi uchun kerak bo'lган xavo sarfini hisoblash kerak bo'ladi. Xar xil pnevmatik o'lchov asboblari uchun kerakli bo'lган xavoning naminal sarfi bo'yicha ma'lumotlar spravochniklarda, hamda o'lchov asboblarini ishlab chiquvchi zavodlar tayyorlagan instruksiyalarda keltiriladi. Pnevmatik xavo manba sifatida xar xil konstruksiyali kompressorlar ishlatiladi. Kontrol o'lchov asboblari (KIP) ishlatadigan xavoga qator talablar qo'yiladi:

- havo quruq bo'lishi kerak;
- havo har xil mexanik zarrachalardan tozalangan bo'lishi kerak;
- havo yog' tomchilaridan (zarrachalaridan) tozalangan bo'lishi kerak.

O'lchov asboblarini qanday temperaturada ishlatilayotganligiga qarab, shudring tushish temperaturasini hisobga olib, pnevmomanba tizimidagi bosim aniqlanadi.

- +50<sup>0</sup>Sdan 5<sup>0</sup>S gacha temperaturada bosim 0,25MPa;
- +50<sup>0</sup>Sdan 30<sup>0</sup>Sgacha temperaturada bosim 0,4MPa;
- +50<sup>0</sup>Sdan -50<sup>0</sup>S gacha temperaturada bosim 0,6MPa bo'lishi kerak.

Odatda, pnevmatika kollektorlaridagi bosim bevosita ta'sir ko'rsatuvchi bosim rostlagichlari yordamida rostlanadi. Xavo tizimida bosimni ushlab turish uchun va tizimda ma'lum miqdorda siqilgan xavo zaxirasi bo'lishi uchun resiverlar ishlatiladi. Pnevmanba tarmog'i kofigurasiysi xavo yuradigan trubkalar uzunligini eng kichik qiymatini ta'minlashi kerak. Xavo yuradigan trubkalar konfigurasiysi rodial va magistral-aylanma bo'lishi mumkin va u pnevmo qabul qiluvchilar joylashishiga bog'liq.

Pnevmo qabul qiluvchilarini taqsimlash-kollektorlariga ulanishning individual, gruppali va markazlashgan usullari mavjud.

Individual usulda xar bir kollektordan chiqayotgan tarmoqga berkituvchi organ, xavo filtri, reduktor va nazorat manometri o'rnatiladi.

Gruppali usulda kollektordan chiqayotgan tarmoqga bir nechta pnevma qabul qiluvchilar ulanishi mumkin, agar ularga ishlatiladigan xavo xajmi pnevmoqabul qiluvchilarning hammasi uchun yetarli bo'lsa.

Agar yaqin joylashgan pnevma qabul qiluvchilar 30 va undan ko'p bo'lsa, unda markazlashgan manbadan foydalanish mumkin. Bunda ikkita xavo reduktorga va filtrlari yordamida manba taqsimlash kollektoriga olib kelinadi.


Xavo yuruvchi trubalar diametri 20mm dan kam bo'lmasligi kerak. Kollektordan tarmoqlanayotgan trubkalar diametri 10mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Pnevmanba chizmasida shartli bosim va diametri ko'rsatilgan xolda bosh sexning va gruppalarning taqsimlash kollektorlari, bosh kollektordan pnevmoqabul

qiluvchilargacha xavo yo'llari tarmog'i (shartli diametrлари ko'rsatilgan xolda), berkituvchi va ochib-yopuvchi apparatlar, reduktor filtr, xavo purkovchi shtuserlar va manometrlar ko'rsatiladi.

Pnevmo qabul qiluvchilar chizmada shartli ravishda jadval ko'rinishida ko'rsatilib, unda asboblarning spesifikasiya bo'yicha pozisiyalari, turi, xavoning nominal sarfi va o'rnatalish joyi ko'rsatiladi.

Avtomatlashtirish vositalarining pnevmomanba tizimini loyihalashni bajarishga misol:



8.4 – rasm.

Pnevmatik manba tizimini loyihalash uchun pnevmo qabul qiluvchilar manbasi uchun kerak bo'lgan xavo sarfini hisoblab chiqiladi.

Quritish va tozalash qurilmasida tozalanib, quritilgan xavo korxonaning bosh kollektoriga beriladi. Korxonaning bosh kollektori diametri 50 mm, undagi xavo bosimi 0,7 MPa. Undan KIP xavosi ignasimon ventillar orqali sex kollektorlariga

taqsimlanadi. Sex kollektorlari diametri 40 mm. Sex kollektorlaridan KIP xavosi istimolchi avtomatlashtirish vositalariga reduktor, filtr va manometr orqali 0,14 MPa bosimda tarqatiladi. chizmaning pastki qismidagi turtburchaklarning tepa, bиринчи qatoridagi kataklarda istimolchilarning avtomatlashtirishning funksional chizmasidagi pozisiya raqamlari ko'rsatiladi, ikkinchi qatorda avtomatlashtirish vositalarining tiplari keltiriladi, uchinchi qatorda ularga beriladigan xavoning nominal sarfi, va to'rtinchi qatorda istimolchilarning qaerda joylashgani.

## **10-Ma'ruza. Shchit va pultlarni loyihalash (4-soat).**

### **Reja:**

1. Shchit va pultlarni tayyorlashdagi asosiy xujjatlar;
2. Shchitlarning umumiyo ko'rinishi chizmalari:
  - A) Old tomondan ko'rinish chizmalari;
  - B) Ichki tomondan ko'rinishi chizmasi.
3. Grafikli, adresli va jadval usullari.
4. Yig'ma va aloxida shchitlarning tarkibiy ro'yxati jadvallari.

### **Shchit va pultlarni tayyorlashdagi asosiy xujjatlar**

Shchit va pultlarni tayyorlashdagi asosiy xujjat, bu shchit va pultlarning frontal va ichki tomondan ko'rinishi xamda ichki simlarning ulanish chizmalaridir. shchit va pultlarning loyixa xujjatlariga shchitlarning umumiyo ko'rinishi chizmalari, elektr simlarni montaj qilish jadvallari va shchit va pultlarni OST 3673-76 bo'yicha spesifikasiyasi kiradi.

### **Shchitlarning umumiyo ko'rinishi chizmalari**

Shchitlarning umumiyo ko'rinishi chizmalarini aloxida shchitlar va yig'ma shchitlar uchun ishlab chiqiladi.

Alovida shchitlarning umumiyo ko'rinishi chizmalariga shchitning old tomondan frontal yuzasi ko'rinishi, ichki tomondan ko'rinishi, tablo va ramkalardagi yozuvlar jadvali, tarkibiy qismlar ro'yxati va asosiy yozuvlar kiradi.

Yig'ma shchitlarning umumiyo ko'rinishi chizmasiga old tomondan frontal yuzasi ko'rinishi, tarkibiy qismlar ro'yxati va asosiy yozuvlar kiradi.

Alovida shchitlarning umumiyo ko'rinishi chizmalari 1:10 mashtabda, shchit xonasidagi yig'ma shchitlarning joylashish chizmasi esa 1:25 mashtabda ko'rsatiladi. O'lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarini bu chizmalarda soddallashtirib, tashqi ko'rinish chiziqlari ko'rinishida chiziladi. shchitdagi xamma elementlarga pozisiya nomerlari beriladi.

### **Old tomondan ko'rinish chizmalari.**

Bu chizmada o'lchov asboblari va mnemosxema keltirilib, ularning gabarit o'lchamlari qo'yib ko'rsatiladi. Vertikal bo'yicha o'lchamlar panelning pastki

chegarasidan boshlab qo'yiladi va gorizontal yo'nalishdagi o'lchamlar panelning simmetriya o'qidan yoki panel chetidan boshlab qo'yiladi.

O'lchov asboblari pozisiya belgilarining pastida o'rnatish chizmalarining (montaj chizmalari) nomeri ko'rsatiladi.

Agar ulovchi simlar shchitga tepadan kiritiladigan bo'lsa, unda bu chizmaga shchit tomining ko'rinishi qosh'iladi.

Shchit xonasiga joylashtirilgan shchitlarning umumiyo'q ko'rinishida o'lchov asboblari ko'rsatilmaydi.

Agar shchitlarning joylashtirilishining umumiyo'q ko'rinishi murakkab bo'lsa, unda uni yoyib ko'rsatilishi mumkin.

### **Tablo va ramkalardagi yozuvlar jadvali**

Jadval "Tablo va ramkalardagi yozuvlar" deb nomlanadi. Xar bir yozuvga raqam qo'yilib tablo yoki ramka konturi ichiga qo'yiladi (chapdan o'ngga, tepadan pastga) jadvalda avval tablo yoki ramkaning nomi va tipi ko'rsatiladi. yozuvlar qisqa va aniq bo'lishi kerak.

"Ulovchi sim" (provodnik) ustunida prinsipial sxema yoki tashqi ulanishlar chizmasidagi simlarning markirovka raqami ko'rsatiladi. Ulovchi simlar manzillarini "qaerda kelyapti" va "qaerga ketayapti" ustunlariga kasr ko'rinishida yoziladi. Bunda kasr suratiga o'lchov asbobi yoki qurilmaning pozision belgilanishi, maxrajda esa o'lchov asbobi yoki qurilmaning kontakti nomeri qo'yiladi. "Ulovchi sim qo'rsatkichlari" ustunida ulovchi sim markasi, kesim yuzasi ko'rsatiladi.

Kasr chizig'i o'rniga ikki nuqta xam qo'llanishi mumkin.

Agar o'lchov asbobining bir nechta kalotkalari bo'lsa unda kalodka nomeri ko'rsatiladi. Masalan: 18v-K2:5, 18v pozisiyadagi 2-kolodkaning 5-klemmasi.

### **Yig'ma va aloxida shchitlarning tarkibiy ro'yxati jadvallari**

Yig'ma shchitining tarkibiy ro'yxati jadvali "yig'ma birliklar" va "standart maxsulotlar" dan tashkil topadi. Umumiy ko'rinishi chizmasi mavjud bo'lgan shchit va pultlarni birinchi bo'limiga, yordamchi elementlarni ikkinchi bo'limiga kiritiladi.

Aloxida shchitlarning tarkibiy ro'yxati "Detallar", "Standart maxsulotlar", "Boshqa maxsulotlar" va "Materiallar" bo'limlarini o'z ichiga oladi.

"Detallar" bo'limiga nostandart (tipik bo'limgan) o'lchov asboblari va apparatlarni o'rnatishda qo'llaniladigan detallar kiritiladi. (masalan. Reyka, plata va boshqalar)."Standart maxsulotlar" bo'limiga shchit konstruksiyalari (shkaf, karkasli panellar, "stoykalar" va shunga o'xshashlar) va boshqa standart maxsulotlar (asboblar, elektr jixozlar) kiradi.

"Boshqa maxsulotlar" bo'limiga asboblar, apparatura va montaj uskunalari quyidagi guruxlar bo'yicha kiritiladi:

a) avtomatlashtirishning asbob va vositalari (pozitsiya raqamlari ortib borishi bo'yicha),

b) Boshqarish elektrjixozlari (knopkalar, yoqib och'irgichlar), signal armaturasi, rele va manba jixozlari (transformatorlar, avtomatlar, och'irgichlar),

v) Montaj maxsulotlari elektr montaj maxsulotlari, trubalarni montaj qilish maxsulotlari, yozuvlar uchun ramkalar.

Jadvalning "Nomlanishi" ustunida asboblarning tipi, modifikasiyasi va bajarilish raqami belgilanishi keltiriladi. Izox bo'limida o'rnatish chizmalari raqami ko'rsatiladi.

Asosiy yozuvni (burchak shtampi) shchitning tarkibiy ro'yxatining birinchi listiga joylashtiriladi, qolgan varaqlarda esa asosiy yozuv joylashtirilmaydi. chizma nomini masalan, yig'ilgan shchit uchun "Suv ta'minoti dispetcheri shchiti. Umumiy ko'rinishi", aloxida shchit uchun "shchit 1. Umumiy ko'rinish" deb nomlanadi.

### **11-12-13-Ma'ruza. Tashqi elektr va trubali ulanishlar(6-soat).**

#### **Reja:**

1. Tashqi elektr ulanishlar
2. Trubali ulanishlarni loyixalash;
3. Elektr va trubali ulanishlarni bajarilish chizmasi

#### **Tashqi elektr ulanishlar**

Tashqi elektr ulanishlarini avtomatlashtirish chizmalari, prinsipial chizmalar, manba chizmalari, hamda elektr jihozlari qurilmalarining qoidalari vayetakchi loyixa tashkilotlarining yo'l yo'riq ko'rsatuvchi materiallari (RTM) asosida amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirish tizimlarining elektr ulanishlarini loyihalashda ularni bajarilish usullarini, simlarning yoki kabellarning texnik xarakteristikasini, ximoyalash va ushlab turuvchi konstruksiyalarni ketma-ket tanlanadi.

#### **Elektr ulovchi simlarni tortishni va bajarilish usulini tanlash.**

Elektr simlarni tashqi va ichki tortish usullari mavjud. Tashqi tortish usulida binoni tashqi devorlaridan tortiladi, ichkida berk bino ichidan tortiladi.

Bajarilish usuliga qarab ular ochiq va yopiq bo'lishi mumkin.

Simlarni tortilish usuliga qarab, ximoya trubalarida tortish latoklarda karobkalarda, kabel konstruksiyalarida yoki ko'priklarda, osma tortish kanallarda tunnellarda yokiyer ostida yotqizilgan kabellarda tortish usullari mavjud. Simlarni tortish usulini kabel maxsuloti turiga qarab, bino kategoriyasiga qarab, iqtisodiy ko'rsatgichlarga va eksplutasiyaga qulayligiga qarab tanlanadi.

#### **Kabel va simlarni tanlash.**

Avtomatlashtirish tizimlarining elektr ulovchi simlarini loyixalashda kabel va ulovchi simlarni tanlash quyidagilarga bo'linadi;

- tok yurituvchi simlar materialini tanlash,
- sim va kabellarning, ximoya o'ramini va uning *qobig'ini* tanlash,
- kabelning ximoya qatlamini tanlash,
- tok yuruvchi simlarning kesim yuzasini tanlash.

## **Tok yuruvchi simlarning materialini tanlash.**

Kabel va simlarning markasini aniqlashni tok yuruvchi sim materialini tanlashdan boshlanadi. Odatda mis va alyumin simlaridan foydalaniladi. Alyumin simlarni tanlash uchun o'lchov asboblarini ishlab chiqaruvchi zavod bilan kelishilish kerak bo'ladi. Simlar, kabellar va ularning ximoya qatlamini (izolyasiya) tanlashda elektr simlarni tortish usulini va atrof muxit xarakteristikasini hisobga olish kerak bo'ladi.

-40<sup>0</sup>S dan +40<sup>0</sup>S gacha muxitda polivinilxlorid (izolyasiyalı) ximoya qatlamli simlar va -40<sup>0</sup>Sdan +50<sup>0</sup>Sgacha muxitda rezina ximoya qatlamli simlardan foydalaniladi.

Termoelektrod simlar polivinil xlorid izolyasiyalash ( $\div 40 \div 70^0S$ ), shisha tolali o'ramli polietilenterftalat izolyasiyalı ( $-60 \div +120^0S$ ) bo'lishi mumkin.

## **Kabel himoya qatlamini tanlash.**

Kabel ximoya qatlamini kabelni tortish sharoitlariga qarab tanlanadi. Ishlab chiqarish binolarining ichida, mexanik ta'sirlar (jaroxat) xavfi bo'limganda, bromsiz kabellar ishlatiladi. Bunda kabelni tortish konstruksiyalari va lotoklari 2 m dan balandda joylashtiriladi. yong'in va portlashdan xavfli xonalarda kabellarni ximoyalovchi po'lat trubalarda yoki po'lat korobkalarda tortiladi. Mexanik ta'sirlardan ximoyalash murakkab bo'lgan xolatlarda bronlangan ximoyalovchi qatلامи yonmaydigan kabellardan foydalaniladi.

## **Tok o'tkazuvchi simlarning kesim yuzasini tanlash**

Tanlash eng katta yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tok yuklamasi va mexanik mustaxkamlik bo'yicha amalga oshiriladi.


Ishonchli mexanik mustaxkamlikni ta'minlash uchun eng kichik kesim yuzasi quyidagicha bo'lishi kerak:

- 60 voltgacha kuchlanishli zanjirlarda – 0,2 mm<sup>2</sup> mis simlar,
- 60 voltdan yuqori kuchlanishli zanjirlarda – 0,35mm<sup>2</sup> ko'p simli mis – simlarda va 0,5mm<sup>2</sup> bir simlar

Simning kesim yuzasini aniqlashdagi toki yuklamasining xisobiy qiymatini odatda quyidagi shart bo'yicha tanlanadi. I Uzoq muddatda mumkin bo'lgan  $\geq I$  xisobiy


## **Himoyalovchi va ushlab turuvchi konstruksiyalarni tanlash**

Lotoklar va ko'priklar: Simlarni quriq xonalardan tortishda, agar ularga mexanik ta'sirlar bo'lmasa, hamda ularning ximoya qatlamiga ta'sir etuvchi muxitlar bo'lmasa unda lotok va ko'priklardan foydalaniladi. (Qosh'imcha ulardan kabellarni tortishda foydalaniladi). Lotok va ko'priklarning kengligi 200 va 400mm bo'ladi. Kabel va simlar lotok va ko'priklarda skobalar bilan maxkamlanadi (11-rasm ).




11 - rasm.

Rasmda kabellarni tortish uchun ko'priklar elementlari va skobalar chizmalari keltirilgan (12-rasm).



12-rasm.


Kabel konstruksiyalari polkalardan, stoykalardan va yordamchi elementlardan tashkil topgan bo'ladi. (rasm 44). Ular kabel maxsulotlarini ochiq tortishda xamda, lotok va ko'priklarni ushlab turuvchi konstuksiya sifatida ishlatalishi mumkin



13-rasm.

### Korbkalar va ximoya trubalari

Ko'p sonli simlarni tortishda, ximoya trubalarida tortish maqsadga muvofiq bo'lmasa va lotok va ko'priklarni qo'llab bo'lmasa unda ochiq va yopiq korobkaldan foydalaniladi (rasm. 45).



13.1-rasm.

Chang, nam o'tkazmaydigan, portlashdan xavfsiz ijro talab qilinganda ximoya trubalaridan foydalaniladi.

## **Trubali ulanishlarni loyixalash**

Tashqi va ichki trubali ulanishlar mavjud. Trubali ulanishlar vazifasiga qarab impuls uchun, komanda uchun, manba uchun, chiqarib tashlash uchun, isitish uchun, tozalash uchun bo'ladi.

Loyixalashda avval truba turi tanlanadi va undan so'ng ularni tortish usuli tanlanadi.

### **Trubalarni tanlash**

Avtomatlashtirish tizimlarida quyidagicha trubalarda ishlataladi:

- po'latdan yasalgan, suv-gaz o'tkazuvchi va ulanmagan,
- misdan yasalgan,
- alyumindan yasalgan,
- polietilenden yasalgan,
- polivinilxloriddan yasalgan trubalar.

shuningdek pnevmokabellar ham keng qo'llaniladi. Ulovchi trubalarni odatda uglerodli po'latdan tayyorlanadi.

Pnevmoavtomatikada komanda trubalari sifatida plastmassa trubalaridan keng qo'llaniladi.  $-10^{\circ}\text{S}$ dan  $+60^{\circ}\text{S}$ gacha temperaturada polivinilxlorid trubalar,  $-40^{\circ}\text{S}$ dan  $+50^{\circ}\text{S}$ gacha temperaturada pnevmokabellar va  $-60^{\circ}\text{S}$  dan  $+50^{\circ}\text{S}$  gacha polietilen trubalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Temperaturaning oshishi bilan plastmassa trubalarning mexanik xarakteristikalari sezilarli ravishda pasayadi. Ulardan issiq sexlarda, yong'inni och'irish tizimlarida, hamda yong'inni signallash tizimlarida foydalanilmaydi.

Rangli metallardan tayyorlangan trubalardan boshqa trubalardan foydalanib bo'limganda foydalaniladi. Ularni shartli diametrlari  $D_u=8,11,20,25\text{mm}$  bo'ladi.

Alohida trubalarda ulanishlar "stoykalar, tirkakli pronshteynlar yoki podveska"lar ustidan tortiladi. Gruppashgan trubalar tirkakli (opornix) metal konstruksiyalar orqali yoki troslarda tortiladi.

## **Elektr va trubali ulanishlarni bajarilish chizmasi**

Ulash (soedineniya) va ulanishlar (podklyuchenie) grafik usulda yoki tablisa usulida bajarilishi mumkin.

Tashqi ulanishlar chizmasi shchit tashqarisidagi texnologik jixozlarda o'rnatilgan avtomatlashtirish vositalari va asboblarining shchit ichidagi avtomatlashtirish vositalar bilan elektr va trubali ulanishlarini ko'rsatadigan kombinasiyali chizma hisoblanadi.

Chizma masshtabsiz bajariladi va u chizmadan va montaj materiallari va maxsulotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'ladi.

Chizmalarning yuqori qismida\_sezgir elementlar, ijrochi qurilmalar va texnologik chizmadagi jixozlarga yoki kommunikasiyalarga o'rnatiladigan avtomatlashtirish tizimlarining boshqa elementlari ko'rsatiladi.


Chizmaning tushuntirish jadvallarida agregat nomi, nazorat qilinayotgan parametr, muxit, o'rnatilish joyi, o'rnatish chizmasining nomeri va spesifikasiya bo'yicha pozisiya nomeri.

Chizmaning o'rta qismida, yuqori qism bilan pastki (shchit ko'rsatilgan joy) qism o'rtasida ulovchi korobkalar, datchiklar va joyida o'rnatilgan tizimning boshqa elementlari ko'rsatiladi.

Avtomatlashtirish chizmasida ularga "joyidagi asboblar" to'rtburchagida joylashtirilgan avtomatlashtirish vositalari va asboblari mos keladi.

Trubali va elektr ulanishlarni uzluksiz chiziqlar (0,4-1mm qalinlikdagi) bilan chiziladi. Xar bir chiziq yonida kabel markasini, simlar sonini, simning kesim yuzasini, kabel uzunligini. Elektr ulanish simlarni 1,2,3....84,85 kabi markirovkalanadi, pnevmatik ulanishlar 01,02,03,.....084,085 kabi markirovkalanadi.

Chizmaning asosiy yozuvlar tepasiga montaj materiallari va mahsulotlari ro'yxati keltirilib, unda elektr va pnevmatik kabellar simlar, trubalar, kranlar, ventillar, korobalar, ko'priklar, lotoklar, kabel konstruksiyalari, shvellerlar, ugoloklar va boshqalar keltiriladi.



13.2-rasm. Tashqi ularishlar chizmasini bajarishga misol.

Ushbu chizmaning pastki qismida to'rtburchak ko'rinishida shchit va pultlar ko'rsatiladi. Agar shchit ko'p panelli bo'lsa, unda to'rtburchak vertikal bo'yicha kichik to'rtburchaklarga bo'linib ko'rsatiladi.

Aloxida bir seksiyali shchitlarda ulanishlarni quyidagicha ko'rsatiladi: xar bir shchit to'rtburchagida qisqichlar bloklari, pnevmatik ulagichlarni trubalarga ulanishi, markirovkalangan kabellar simlarining ulanishlari ko'rsatiladi, hamda to'rtburchakning bosh' joyiga shchitning nomi va ulanishlar jadvalining belgilanishi ko'rsatiladi.

## **14-Ma'ruza. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini loyixalashtirish**

### **Reja:**

1. Tashkiliy ta'minot.
2. ABTning boshqaruv strukturasi.
3. TJ ABTning funksional tuzilmasi(strukturasi).
4. TJ ABTda operativ personalni vazifasi.

### **TASHKILIY TA'MINOT**

Tashkiliy ta'minot (TT) texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini (TJABT) funksional, texnik va tashkiliy strukturasini va operativ xodimlar ishlashi uchun zarur vayetarli instruksiya bayonini o'z ichiga oladi. TJ ABT bilan boshqaruvning yuqori darajalari orasidagi o'zaro bog'lig'lik ishlab chiqarish korxonasida korxonani avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (KABT) va avtomatlashtirilgan tizimlarni operativ-dispecher boshqaruvi (ASODB) mavjudligi bilan belgilanadi.

Umuman olganda korxonada yagona hamma ishlab chiqarishni boshqaradigan TJ ABT yaratilishi mumkin, yoki bir nechta texnologik agregatlar, liniyalar va uchastkalarni boshqarayotgan TJ ABT yaratilishi mumkin. Bunda bu sistemalarni funksional, texnik, informasion, dasturiy va tashkiliy darajada bir-biriga mos kelishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Korxonada yaratilayotgan hamma boshqarish tizimlari maqsadlari funksional darajada bir-biriga mos kelishi talab qalindadi. Texnik, informasion, dasturiy darajada mos kelish masalalari texnik vositalarni, operasion tizimni, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini va boshqalarni tanlashda xal qilinadi.

### **ABTning boshqaruv strukturasi.**

Ko'p korxonalarda JTABTni yaratishdan oldin maxsus ABT xizmati bo'limi tashkil qilinadi va unga korxona bosh injeneri o'rinnbosari, ABT bo'limi boshlig'i boshchilik qiladi. U bosh injenerga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysinadi. ABT xizmati odatda, korxonaning axborot-hisoblash markazi (AHM) va korxonaning metrologik xizmatidan iborat bo'ladi.

Axborot-hisoblash markazi bo'limini AHM boshlig'i boshqaradi. Hisoblash texnikasi va dispetcherlik punkti uskunalarini ekspluatasiya qilish va sozlash

(naladka) guruxi, shuningdek, dasturchi (programmist) va boshqarish topshiriqlarini belgilovchilar sektori AHM guruxiga kiradi. Dasturchilar va topshiriqlarni belgilovchilar sektori xadimlarining asosiy vazifalari zavoddan (zavodo-izgotovitel) jo'natilgan boshqaruv hisoblash kompleksi (UVK) va ishlab chiqilgan tizimning dasturiy ta'minoti va vositalarini sozlash (otladka) va ekspluatasiya qilishdan iborat. shuningdek, ishlab chiqarish jarayonini tadqiq qilish va hamma ishlab chiqarish jarayonini yaxlit holda va alohida bosqichlarni optimallashtirib rivojlantirish, shu jumladan boshqaruvni yangi masalalariniyechish uchun matematik modellar, algoritmlar va dasturlar ishlab chiqishdan iborat.

TJ ABTni joriy qilish bilan an'anviy metrologiya hizmati vazifasiga ob'ekt bilan periferiya (chet)dagi aloqa qurilmalarini to'g'ri ishlashini ta'minlash vazifasi qosh'iladi: texnologik parametrlarni signal o'zgartigichlari va qurilma xolati, aloqa tizimi, turli tipdagi signal o'zgartigichlar. Agar (UVK)ga uzatayotgan axborot va undan chiqayotgan hamma kanallar, bu informasiyalarni ishonchlilagini aniq taminlasa, TJ ABT normal ishlashi mumkin. TJ ABT alohida qurilmalari muntazam ravishda nazoratni talab qiladi, va u metrologik xizmat tomonidan amalga oshiriladi.

### **TJ ABTning funksional tuzilmasi (strukturasi)**

TJ ABTning funksional strukturasi deganda tizim bajarayotgan funksiyalar majmui, bu funksiyalarning amalga oshirish tartibini belgilovchi ular orasidagi bog'liqliklar tushuniladi.

Maqsaddagi TJ ABT vazifalarini qabul qilish asosiy masalalardan biri hisoblanib, uni tizimni ishlab chiqishning boshlang'ich bosqichlarida xal qilish kerak bo'ladi. TJ ABT ishlashi ma'lum masalalariniyechimiga qarab quyidagicha klassifikasiyalash mumkin:

- to'g'ridan-to'g'riyechiladigan masalalar;
- mantiqiy masalalar;
- axborotni qayta ishslash masalalari;
- qaror qabul qilish masalalari.

Korxonaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda sistema oldiga qo'yilgan maqsadlarni bajarishni ta'minlovchi TJ ABT vazifalari tarkibini aniqlash boshqarish ob'ektlarini ma'lum bir taxlil qilish usullariga asoslanadi.

Loyihalashning boshlang'ich bosqichining o'ziga xos xususiyati bu axborotni cheklanganligidir.

Boshqaruv ob'ektining struktura chizmasi uni murakkab tizim deb dekompozisiyalab olish mumkin.

Dekompozisiyalash proseduralari sababli ma'lum struktura elementlarini ajratish, ularning ushbu boshqarish maqsadlaridagi ishtirokini va boshqarish vazifalarini belgilab olish kerak bo'ladi. Bunda maqsad funksiyasini ishlab chiqishning axamiyati katta hisoblanadi. TJ ABT uchun quyidagi maqsad funksiyalaridan foydalanish mumkin: xarajatlar yig'indisini (tannarxni) minimallashtirish; ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarni maksimallash; ma'lum energiya tashuvchilarni sarfini minimallashtirish.

**Boshqaruv ob'ektni stratifikasiyalash** (funksional doirada dekompozisiyalash). Ob'ektni bat afsil tavsifini olishda qiyinchiliklar yuzaga kelganda, katta murakkab tizimlar kichik sodda tizimlarga dekompozisiyalanib o'r ganiladi.

Tizimga bu holatda modellar oilasi ko'rinishida qaralib, ularning har biri tizimlar xolatini har xil abstraksiyalash (jarayonni muhim tomonlarini aniqlash uchun asosiysini olib, mayda-chuydalarga e'tibor bermaslik) nuqtai nazaridan ta'riflaydi.

**Ob'ektni murakkablik darajasi bo'yicha qabul qilingan qarorlarni dekompozisiyalash.** Murakkab tizimlarni boshqarish jarayonida qarorlar qabul qilinganda, bir tomondan real vaqtda jarayonga tezkorlik bilan aralashish zarurligi, ikkinchi tomondan esa qisqa vaqt ichida tizimni muarkkabligini e'tiborga olgan holda taxlil qilish va uning xolatidagi asosiy muammolar yuzaga kelishi bilan bog'liq boshqarish strategiyasini ishlab chiqish kerakligiga e'tibor qaratilishi kerak. Murakkab tizimlarni boshqarish, ko'p qatlamlili ierarxik tizimlardan foydalanishda qabul qilingan qarorlardan iborat. Bunday usulda qiyin muammo bo'yicha qaror chiqarilishi ketma-ket joylashgan soddaroq muammolar oilasi qarorlariga bog'liq.

Korxonalarda qaror qabul qilishning ko'p qavatli ierarxiya tizimi tizimlarni boshqarishda quyidagi pog'onalarini o'z ichiga oladi:

- alohida texnologik agregatlarni rostlash, nazorat qilish va boshqarish (boshqaruv ierarxiyasining quiy bosqichi);

- koordinasiyalashning birinchi bosqichi, texnologik tizim ichidagi qandaydir jarayonni boshqarishning lokal maqsadlarini yuqori tizim tomonidan ma'qullanishi;

- koordinasiyalashning ikkinchi bosqichi, texnologik tizim ichidagi jarayonlarni boshqarishning lokal maqsadlarini yuqori tizim tomonidan ma'qullanishi;

- koordinasiyalashning uchinchi bosqichi, texnologik tizim ichidagi butun ishlab chiqarishni boshqarishning lokal maqsadlarini yuqori tizim tomonidan ma'qullanishi;

Har bir boshqaruv darajasi bir nechta algoritm asosida, boshqarishni rasional va optimal tashkil etib ishlashi mumkin.

### **TJ ABTda operativ personalni vazifasi.**

Dispecher-texnolog tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Dispecher-texnologning vazifalari TJ ABT oldidagi turgan maqsad va vazifalarga bog'liq bo'lib, u tizimni ekspluatasiya qilish hujjatlarining tarkibiy qismi hisoblangan, lavozim instruksiyasida keltirilgan bo'ladi.

Dispecher-texnologlarning lavozim instruksiyasida quyidagi masalalar aks etgan: uni tizimda kimga bo'y sinishi; u buyruq bera oladigan shaxslar tarkibi; u o'z ishini qanday xujjatlar tarkibi asosida yuritishi mumkinligi; lavozimga tayinlanish tartibi va professional talablar; TJ ABT va jarayon xususiyatlarini xisobga olgan xolda detallashgan vazifalari; huquq va burchlari; smena mobaynidagi ishlari va ishni qabul qilish va topshirish tartibi va boshqalar.

Odatda TJ ABTning tashkiliy ta'minot tarkibiga quyidagilar kiradi:

UVK operatoriga operativ ishlab chiqarish ma'lumotlarini UVKga kiritish bo'yicha instruksiya;

UVK kimyo-texnologiya laboratoriysi operatoriga xom-ashyo va yarim maxsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini taxlili natijasini UVKga kiritish bo'yicha instruksiya;

SATH ulchagpchlarning montaj oldi sozlash- tekshirish ishlarikuyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Datchik etalon suyuklik bilan tuldirliladi;
2. Ikkilamchi asbobning ko'rsatgichi yozib olinadi;
3. Birikchi sinov suyukliga o'rniga 2 - etalon suyukligi bilandatchik to'ldiriladi va kamida 4-5 marotaba turli zichlnkka egabo'lgan etalon suyukliklarning zichligi o'lchanadi;
4. Areometr bman etalon suyukliklar zichligi para, tlel tarzdaiaazorat etib boriladi;
5. Absolyut, keltirilgan hato va variatsiyasi hisoblanib, tekshirilayapgan asbobning aniklik sinfi bilan takqoslanadi;

### **Suyukliklarning qovushqokligani o'lhash vositalarining montaji va sozlash ishlari**

Kovushkoklik deb sutokliklarning sirpanish yoki sshshishiga qarshilik ko'rsatish xususiyatiga aytildi.

Ishlash prinsipiiga binoan quyidagi usullarga bo'linadi:

1. Kapillyar - bunda sugoklikning kapillyar iaychadan okibchikishida k, ovushkokligiga mos tarzda o'tish vaqtini yokinaychadagi bosimlar farkining o'zgarishiga asoslangan;
2. Zo'ldirli - bunda erkin tushuvchi jismning suyuklikdagi tezliga(yoki vaqt) shu suyuklik kovushkokdigiga bog'liklididan foydalilaniladi;
3. Rotatsion - buida aylanuvchi jismga tekshirilayotgan suyuklik \osil qilgan qarshnlik momenti va aylantiruvchi momentlarni o'lhashga asoslangan; ebranishli - bunda nazorat kilinayotgan muhitga tushirshtgan -ezshr element tebranishi so'nish darajasining shu muqit-kovushqokligiga bog'likdigiga asoslangan.

skozimetrlarki *montaj* qilish texggik loyiha, me'yoriy xujjatlar talablari asosida o'rnatalidi. Kovshqoklikni o'lhash asboblarini darajalashda kovush-oilan *shkala*. oraschidagi bog'lanishni aniklashdan iboratdir. Bunda namunaviy viskozimetrlarning ko'satishi \ak. ikiy deb olinib, tekshirilayotgan asbobdan bir necha suyuklik o'tkaziladi.

Darajalash kuyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. Suyuklik tekshirilayotgan asbobdan o'tkazilib, nkkilamchi asbobko'rsatishi yozib olinadi;
2. Bu tekshirish bir necha etalon suyukdik uchun qaytariladi;
3. Parallel tarzda namunaviy viskozimetr vositasida etalonsuyukliklarning kovushqokligi qayd etib boriladi;
4. Asbobning absolyut, keltirilgan hatolari aniklanib, anikdiksnnfi bilan taqqoslanadi.

## 25- Ma'ruza. Shchit va pultlarni montaji va sozlash ishlari (2 soat)

### Reja:

1. Shchit va pultlarning turlari va vazifalari;
2. Shchit va pultlarning tipi va kostruksiyasini tanlash;
3. Shchit va pultlarda avtomatlashtirish vositalarini va asboblarni joylashtirish;
4. Shchitlarning ichki yuzasida avtomatlashtirish vositalarini joylashtirish;
5. Shchit va pultlarni joylashtirish

### Shchit va pultlarning turlari va vazifalari


Shchit va pultlar avtomatik nazaorat, boshqarish va signallash asboblarni va avtomatlashtirish vositalarini boshqarish punktlarida joylashtirishga mo'ljallangan bo'lib, ular karkasga o'rnatilgan panellarga o'rnatilib, elektr va trubali ulanishlari amalga oshiriladi. Keyingi yillarda shchitlarsiz boshqarish punktlariga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xozirgi vaqtida lokal boshqarish punktlari shchitlar bilan, markazlashgan boshqarish punktlari esa, kombinasiyalangan xolda loyihalanmoqda.


Avtomatlashtirish tizimlarida to'la va kichik o'lchamli (gabarinli) shkafli va panelli shchitlar va yordamchi elementlar qo'llanilmoqda. Shchit va pultlarning konstruksiyalari OST 36.13-76 bo'yicha reglamentlanib, unda shkafli, karkasli panelli, hamda bir, ikki va uch seksiyali stativlar ishlab chiqarilishi mo'ljallangan.

Shchitlar va stativlar ikki xil tayyorlanadi:


I - ikki panelli;

II – uch panelli.





25.2-rasm. shchitlarning fasad panellarida o'lchov asboblarini va apparatlarni joylashtirishga misol: 1 — yonuvchi tablo; 2 va 4 — ko'rsatuvchi; 3 — yozib boruvchi o'lchov asboblari; 5- knopka; 6 — yoqib och 'irgich; 7 — signal armaturasi; 8 — yozuv uchun ramka.



25.3-rasm. shchit karkasida o'lchov asboblarining ichkari tomonlarini maxkamlashga misol: a — o'lchov asboblarini yakka tartibda o'rnatish; b — gruppalab o'rnatish; 1 — podstavka; 2 — podkladka; 3 — o'lchov asbobi; 4 — xomut; 5 — yon tomon shvelleri shB; 6 — tayanch; 7 — shchit karkasi ustuni; 8 — shpilka; 9 — shveller sh.

Shchit konstruksiyalarini shartli belgilanishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mahsulotning nomi, seksiyalar soni, yon devorlarining ochiqligi yoki yopiqligini ko'rsatilishi, ijro raqami, tiporazmer, klimatik ijrosi, ximoyalanish darjasи, asosiy xujjat raqami.

Shchit xonalaridagi temperatura  $20-30^{\circ}\text{S}$  bo'lisi mumkin. Shchit va pultlarni loyihalashga struktura chizmasi, avtomatlashtirishning funksional chizmasi, signallah va manba chizmalari asos bo'ladi.

Loyihalash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- shchitning tipi va konstruksiyasi tanlanadi;
- avtomatlashtirish vositalari va asboblarini joylashtirish;
- kommutasion qisqichlar va trubkalar ulagichlari soni va joylashish joyi aniqlanadi;
- elektr va trubali ulanishlar tanlanadi;
- shchitlar va pultlarni ishlab chiqarish yoki maxsus xonalarga joylashtiriladi;
- shchit va pultlarni tayyorlashga topshiriq tayyorlanadi.

### **Shchit va pultlarni tipi va konstruksiyasini tanlash**

Shchit va pultlarni tipi va konstruksiyasini tanlashni boshqarish strukturasini aniqlagandan va texnik vositalar xajmi va xarakteristikasini bilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Birlamchi asboblarni joyida o'rnatish uchun kichik gabaritli shkafli shchitlar ishlatiladi. Lokal va markazlashgan boshqarish punktlarida to'liq gabaritli ko'p seksiyali shchitlar ishlatiladi. Ishlab chiqarish xonalarida shkafli shchitlar, maxsus shchit xonalarida esa, panelli shchitlardan foydalaniladi. Pultlar, odatda yoqib och'iriladigan apparaturalar ko'p xollarda ishlatiladi.

Yig'ma shchitlardagi shchitlarning va alovida panellarning gabarit o'lchamlarini o'rnatiladigan asboblar va avtomatlashtirish vositalari soni va o'lchamlariga qarab tanlanadi.

Shchitlarning orqa tomoni chuqurligini tanlashda, o'rnatilayotgan o'lchov asboblarning orqa qismining o'lchamlarini, shchit ichkarisiga o'rnatilayotgan asboblarning o'lchamlarini, shchit eshiklarining konstruksiyasini, asboblar va apparaturalarning ochiq tokga ulovchi qismlari mavjudligini hisobga olish kerak bo'ladi. Bu tanlangan chuqurliklar elektr jixozlarni loyihalash instruksiyalariga javob berishi kerak. Orqa eshikdan qarama-qarshi tomonigacha masofa 600 mm dan kam bo'lgan shchit va shkaflar tashqaridan xizmat ko'rsatiladigan hisoblanadi. Odatda, bunday xolatlarda shkafli shchitlarni old tomonidan yoki orqa tomonidan eshiklari mavjud bo'lgan sh ІІ – 3D yoki shІІ – P3D konstruksiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Shchit va pultlarda avtomatlashtirish vositalarini va asboblarni joylashtirish**

Avtomatlashtirish vositalarini va asboblarni shchit va pultlarda texnologik jarayon ketishi bo'yicha chapdan o'ngga qarab boshlang'ich bosqichlardan boshlab

yakunlovchi bosqichga qarab joylashtiriladi. Agar ko'p seksiyali shchitlar ishlatilsa, unda xar seksiyada texnologik jarayonning qaysidir zvenosiga (qurilmasiga) mansub asboblar o'rnatiladi. Bunda, ko'p ishlatiladigan, asosiy parametrlar markazga, kam ishlatiladiganlari chetda o'rnatiladi. Bir seksiya ichida o'lchov asboblari simmetrik ravishda o'rnatiladi.

Operator uchun optimal nazorat zonasasi 1300-1650 mm, boshqarish organlarining optimal joylashish zonasasi 1100-1440 mm hisoblanadi.

shchitning balandligi bo'yicha 2,3 va xatto 4 qator o'lchov asboblari joylashtirilishi mumkin. To'rt qator o'lchov asboblarini 700-2100 mm. chegarada joylashtirish mumkin. Ammo, pastki, tavsiya qilinadigan chegara  $900 \div 1200$  mm bo'lgani yaxshi.

O'lchov asboblari orasidagi masofa 40-80 mm., o'lchov asbobidan panel chetigacha masofa 100 mm. bo'lishi tavsiya qilinadi. Bu masofalar o'lchov asboblari ostidagi yozuvlarni ham hisobga oladi.

Ko'rsatuvchi asboblarni  $800 \div 1900$  mm. balandlikda, yozuvchi asboblarni  $900 \div 1800$  mm, rostlovchi asboblarni  $900 \div 1900$  mm, nazorat asboblarini esa,  $800 \div 1600$  mm balandlikda o'rnatish tavsiya etiladi. Ramkadagi yozuvlar qisqa, aniq va element vazifasini to'liq ifodalashi kerak. Odatda uch panelli shchitlarni ishlatish ko'proq tavsiya qilinadi. Ularda pastki panel dekorativ hisoblanadi, o'rtadagi panelga yozuvchi asboblar va boshqarish organlari, hamda, katta o'lchamli ko'rsatuvchi asboblar o'rnatiladi. Tepa panelda signal armaturasini va kichik o'lchamdagagi ko'rsatuvchi asboblarni joylashtiriladi.

Ko'p sonli nasoslar va xar xil mexanizmlar elektr yuritmalarini boshqarish va signallash apparaturalarini operator tomonidan boshqarishniyengillatish uchun mnemosxemalar yaratiladi.

**shchitlarning ichki yuzalarida avtomatlashtirish vositalarini joylashtirish.** shchitlarning ichki yuzalarida avtomatlashtirishning yordamchi vositalari joylashtiriladi: rele, transformatorlar, elektr manbalar, yoqib och'irgich panellari, qisqa tutashdan saqlagichlar, reduktorlar, filtrlar, xamda rostagich va funksional bloklar.

Elektr va pnevmatik qurilmalarni ularning konstruktiv xususiyatlarini xisobga olgan xolda joylashtiriladi. Odatda elektrjixozlar shchitlarning chap tomonida va pnevmojixozlar o'ng tomonida joylashtiriladi (orqa tomonidan qaraganda).

Jixozlar shchit asosidan quyidagi balandlikda o'rnatiladi:

-transflrmatolr, manbalar, yuritgichlar, shchitning yorituvchi lampalar, qo'ng'iroqlar  $1700-2000$  mm,

-rostlagichlar, funksional bloklar, rels  $600-1800$  mm,

-yoqib-och'irgichlar, avtomatlar, razetkalar  $700-1700$  mm,

-Manometrlar  $700-1800$  mm,

-pnevmatik manba jixozlari-reduktor, filtr  $300-700$  mm,

-kommutasjon qisqichlar (k3)  $350-1900$  mm,

-xavo kollektori  $250-500$  mm.

shchitlarga elektr manba manba shchiti EshP-2m orqali beriladi. Unda odatda 2ta paket och‘irgich va 4ta qisqa tutashdan saqlagich bo’ladi.

Havo manbai odatda 1:20 nishab bilan xavo kollektori orqali beriladi (dy=20-50mm). Odatda kollektor oxirida yig‘ilgan kondensatni tushirib yuboruvchi qurilma o’rnataladi.

Eni 600mm bo’lgan shchitlarda 4ta xavoni tayyorlash qurilmasi, 800mm likda 5ta va 1000mm da 6ta qurilma bo’lishi mumkin.

### **Kommutasion qisqichlarning (K3) sonini va joylashish joyini aniqlash.**

Kommutasion qisqichlar ichki va tashqi elektr jixozlar simlarini ulash uchun ishlatiladi. shuningdek, shchitning xar xil seksiyalarida joylashgan yoki xar xil shkaflarda joylashgan qurilmalarni ulashda ishlatiladi.

shchitning bir seksiyasida joylashgan qurilmalarni ulashda kommutasion qisqichlardan foydalanilmaydi. shuningdek termoparani ikkilamchi o’lchov asbobiga ulashda xam kommutasion qisqichlar ishlatilmaydi.

Kommutasion qisqichlar odatda shchitning umumiy ko’rinishida, orqa tomondan ko’rinish (montaj-kommutasiya) chizmasida ko’rsatiladi. Kommutasion qisqichlar sonini prinsipial elektr chizmalardan va o’lchov asboblarining texnik xarakteristikalaridan olinadi.

Qisqichlar odatda gruppalanadi: agregatlar bo'yicha o'lhash, rostlash, boshqarish va signallash tizimlari bo'yicha va ishlatiladigan kuchlanish bo'yicha (36v va 220v) 220v kuchlanish bilan ishlovchi simlar qopqoqlanganbo'lishi yoki ogoxlantiruvchi yozuvlar bilan ogoxlantirilgan bo'lishi kerak.

Qisqichlar guruxlarini bir-biridan erkin qisqichlar yoki markirovka qiluvchi kolodkalar ajratib turadi.

Xar bir qisqichlar guruxida rezerv qisqichlar xisobga olinadi. Odatda xar 6ta qisqichga 1ta rezerv qisqich, 7-16 qisqichga 2ta, 17-32 qisqichga 3ta rezerv qisqich xisobga olinadi.

Kommutasion qisqichlar odatda gorizontal ravishda joylashtirilib oldi tomondagi yoki yon tomondagi panellarga o’rnataladi. O’rnatalish balandligi 350-800mm.

Pultlarda kommutasion qisqichlar yon devorda 350mm balandlikda gorizontal ravishda o’rnataladi.

Agar qisqichlar 2 qator bo’lsa, unda ular orasidagi masofa 200mmdan kam bo’lmasligi kerak.

Agar shchitga impuls trubalar olib kelinsa, unda “pereborochnyiysoediniteli” (PS)lar o’rnataladi. Ular (PS) shchitning yon devoriga o’rnataladi.


Elektr ulash simlarini tanlashda mumkin bo’lgan tok “yuklamasi” xisobga olinadi. Odatda polixrolvinil izolyasiyali mis simlar ishlatiladi. Simlarning kesim yuzasi 0,35, 0,5, va 1mm<sup>2</sup> bo’lishi mumkin.

Impuls trubkalar vazifasiga qarab, ichidagi moddaning kimyoviy xususiyatiga qarab, o’lchov asboblariga ulanish razmerlariga qarab tanlanadi. shchit ichida ham tashqi ulashda ishlatiladigan trubkalar ishlatiladi. Qosh‘imcha polietilen, polivinilxloridli, po’lat va mis trubkalardan foydalaniladi. Ulash gorizontal hamda vertikal ravishda eng qisqa yo’l bo'yicha tortiladi.

### Shchit va pultlarni joylashtirish.

shchit va pultlar boshqarish punktlarida va to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish xonalarida joylashtirilishi mumkin. Odatda sexlarda joylashgan boshqarish punktlarida shchitlar boshqarish ob'ektlariga yaqin joylashtiriladi va bunda jarayonni boshqarish faqat o'lchov asboblari ko'rsatishiga qarab emas, balki jarayon ketayotgan jixozlarga xam qarab nazorat qilinadi.

Ba'zi xollarda operator punktlari ishlab chiqarishda shisha to'siqlar (devorlar) bilan ajratilgan bo'lishi mumkin.



25.4-rasm. Markaziy boshqarish shchitini joylashtirishga misol:

1- chap tomonidan yopiq, karkasli ikki seksiyali panelli shchit, ЦРК-2-ЗЛ; 2 — aylanma ramali karkasli ikki seksiyali panelli shchit ЦЦРК-2; 3 —karkasli uch seksiyali panelli shchit ЦЦРК-3; 4 — o'ng tomonidan yopiq, karkasli uch seksiyali panelli shchit, ЦЦРК-З-ЗР; 5 - ikki seksiyali stativ S-2; 6 —tekis stativ SP; 7 — yordamchi panel, eshikli PnV-D; 8 — yordamchi panel PnV; 9 — burchakli vstavka VU; 10 — chap pult P-L; 11 — o'rta pult P-S; 12 — o'ng pult P-P; 13 — kichik o'lchamli shkafli shchit ЦЦшМ; 14 — ochiq tok beruvchi qismlari bor jixoz.

Dispatcher boshqarish punktlari shchitlari maxsus shchit xonalariga joylashtiriladi.

shchitlarni ishlab chiqarish xonalarida joylashtirish joylarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.:

- shchitlarni birlamchi o'lchov asboblariga yaqin joylashishi;
- shchitlarda joylashgan o'lchov asboblari bilan ishlashning qulayligi va ob'ektni yaqin nazorat qilish imkonining mavjudligi;
- shchitlarga o'tish, yoniga borish mumkinligi;
- shchitdagi o'lchov asboblari yetarli yoritilganligi;
- Vibratsiyaning, issiqlik magnit va elektr maydonlarining va aggressiv gazlarning yo'qligi;
- suv, bug', kislotalarning tushish imkoniyatining yo'qligi.

Shchit xonalarini va dispatcher xonalarini loyihalashda ishchilarga komfort sharoitlarni yaratish bo'yicha qator arxitektura kompanovkalash va rejalashtirish yechimlarini xal qilish bo'yicha masalalarni ochishga to'g'ri keladi. shchit xonalari boshqarish ob'ektiga yaqin bo'lishi kerak.

Shchit xonalarining yerto'lada joylashishi, vibratsiya bor, namligi yuqori, gazlar bor, magnit maydonlarining ta'siri katta, isitish trubalari, suv ta'minoti, kanalizasiya, ventilyasiya o'tgan joylarda bo'lishi ruxsat etilmaydi.

Operatorlar xonasi odatda aktiv operatorlik, nazorati va boshqaruvi zonasiga, davriy tahlil zonasiga, umumiylar axborot zonasiga, mnemosxema va dam olish zonasiga bo'linadi.

## **26-Ma'ruza: Rostlagich va ijro mexanizmlarning montaj va sozlash ishlari**

### **Reja:**

1. Rostlash qonunlari va rostlagichlar.
2. Ijro mexanizmlarning turlari.
3. Roslagichlarning sozlash parametrlarini o'rnatish.
4. Ijro mexanizmlarshshg xarakteristikalarini olish vaularning montaji.

Texnologik parametrlarni topshirilgan kattalikda ushlab turuvchi vositalarga rostlagich deb ataladi. Rostlagichlarning roslash konuni deganda kirish signali bilan chiqish signali orasidagi bog'lanish tushuniladi. Rostlash qonunlari bo'yicha rostlagichlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Pozitsion - bunda rostlanayotgan kattalikning berilgan qiymatidan chetga chiqqanda rostlovchi organ ikki chetki\olatdan birini egallaydi.
2. Proporsional - bunda rostlovchi organ rostlanuvchi parametr vatopshirilgan mikdor orasidagi farqkd nisbatan proporsional o'zgaradi, rostlanuvchi parametrning xar bir miqdoriga rostlovchi organning ma'lum bir holati mos keladi. Sozlash parametri bo'lib, proporsionallik chegarasi olinadi va texnologik ob'ektning dinamik tasnifiga binoan o'rnatiladi.
3. Integral - rostlanayotgan parametr topshirilgan qiymatdan chetga chiqqanda rostlovchi organning rostlanuvchi parametr chetgachiqishiga proporsionalat tezlikda o'zgarishiga asoslangan. Sozlash parametri- integrallash vaqtি bo'lib, bundatopshirilgan va joriy parametrlar orasidagi farq eng katta bo'lganda rostlash organini bir chekka xolatdan ikkinchi chekka holatga o'tkazish uchun ketgan vaqt tushuniladi.
4. Proporsional - integral - bunda rostlovchig ta'sir chetga chiqish miqdoriga proporsional va vaqt bo'yicha farq integraliga teng bo'ladi. Sozlash parametrlari: Integrallash vaqtি yoki izodrom vaqtি - bu vaqtida rostlash energiyaning siljish miqdori proporsional qisminnng ta'sir qiymatiga teng bo'ladi.

Proporsionallik chegarasi yoki rostlagachning uzatish koeffitsienti.

Porsional-differensial-bunda rostlovchi ta'sir chetga mikdoriga proporsional va bu chetga chiqish tezligigaouladi. Sozlash parametrleri: proporsionallik chegarasiva differensiallash vaqt (avvaldan ta'sir vaqt). Bu vaqt rostlovchi chiqishga hosila bo'yicha ta'sir darajasini bildiradi. Odatda texnologik ob'ektlarda kechikish katta va yuklama o'zgarishi tez va keskin bo'lganda bu rostlagachlar o'rnatiladi.

Proporsional-integral-differensial - bunda rostlovchi ta'sir chetga chiqish qiymatiga paroporsional va bu chetgachiqish integrali hamda o'zgarish tezligiga teng bo'ladi. Sozlash parametrleri: uzatish koeffitsienti. izodrom va differensiallash vaqt. Bu rostlagichlar inersion ob'ektlarga o'rnatilib, kechikish katta va parametrning qoldiq chetga chiqishi mumkin bo'lмаган holatlarda o'rnatiladi.

Rostlagach va ijro mexanizmlar loyiha chizmalariga binoan o'rnatiladi. Montaj yuqori texnik darajada amalga oshirilib, natijada ishslash ishonchliligin, rostlash anikliligin va vositalarga xizmat ko'rsatish uchun qulayliligin ta'minlashi lozim. Rostlagich va ijro mexanizmlar vosita komplektiga kiruvchi o'rnatish konstruksiyalari va buyumlari yordamida montaj kilinadi. Ijro mexanizmlar zarb, vibratsiya, yuqori harorat, namlik, chang, ashaddiy muhitlardan holi bo'lgan va asosli mustahkam joylarga o'rnatiladi. Rostlagichlar odatda shchit xonalariga montaj qilinadi. Konstruktiv jihatdan rostlagichlar agregatli yoki asbobli xolatda tayyorlaigan bo'ladi. Asbobli rostlagichlarni tekshirish va sozlash ikkilamchi - asbob bilan birgalikda o'tkaziladi.

Agregatli rostlagichlar ayrim bloklar tarzida tayyorlanib, turli funksiyalarni amalga oshiradi. Eng ko'p tarqalganlari: "Sgart" pnevmatik tizimi, elektron-gidravlikli tizim "Kristall", "Kaskad" va AKESR kabi elektron tizimlardir. Pnevmatik rostlagachlar portlash havfi bor tarmoqlarda o'rnatiladi. Kechikishni pasaytirish uchun bergich, ijro mexanizm va rostlagach orasidagi masofa 5- 10m bo'lishi, mobodo mahsus talablar bo'lmasa rostlagichlarni ZOOM maksofagacha o'rnatish mumkin. "Start" tizimi asbolarini montaj qilganda ularni shchitning metall paneliga o'rnatish va shtutserlarni joriy, buyrug', ta'minot trubkalariga ulash ishlari nazarda tutiladi. PR1.5, PF1.1 kabi bloklar mahsus kronshteynlarga, PR2.5, PRZ.31 va boshka rostlagichlar ikkilamchi asbob korpusiga o'rnatilishi mumkin.

O'rnatishdan oldin barcha rostlovchi qurilmalar montaj oldi gekshirishlari o'tkazilib, darajalanish tasnifi olinadi.

Avtomatik rostlash sistemasining rostlash organlari sifatida aylanuvchi to'siq (zaslonka), bir yoki ikki o'rindikdi rostlash klapanlari bo'lishi mumkn. Rostlovchi klapanning mexanik siljitish uchun pnevmatik, gidravlik va eletr ijro mexanizmlari ishlatiladi.

Pnevmatik ijro mexanizmlar ko'p hollarda truboprovodning gorizontal kismlariga membrana blokini tepe xolatida o'rnatiladi.

Ishchi bosim membranalij iじro mexanizmlariga diametri 8x1 yoki 8x1,6 bo'lgan mis, po'lat yoki polietilenli trubkalar orqali beriladi. YUklama ta'sir kiluvchi o'q bilan siljitish o'qi orasvdagi burchak  $1^{\circ}30'$ dan ortik bo'lmasligi lozim.

Elektr ijro mexanizmlarida elektromagnit yoki elektrodvigatellar ishlatiladi.

Ijro kurilmalari uchun montajdan oldin statik, konstruktiv va sarf kabi xarakteristikalarini olinishi mumkin. Buning uchun tajriba kurilmalaridan foydalananib, DR,- YAO), G‘G(1), O S<sub>2</sub>(B) kabi bog‘laiishlar olnnadi; bunda: DRkl-klapondagi bosim pasayishi; - klapondan o‘tayotgan suyuklik sarfi; G‘ - rostlash organining o‘tish gozasi; B - rostlash organi shtokining siljishi.

Rostlagichlarning montajdan oldin dinamik xususiyatlari tekshirishi ham nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Buni PRZ.31 rostlagachi misolida ko‘rib chiqamiz. Rostlagach texnologik parametr topshirilgan qiymatdan chetga chikqanda proporsional-intefal qonun bo‘yicha rostlovchi ta’sir hosil qilish uchun mo‘ljallangan. Maxsus tajriba qurilmalarida rostlagichning o‘tish efnyalari olinadi. Buning uchun sozlash parametrlarinnng 4,5 qiymati uchun hisob va tajriba natijalari taqqoslanib, bu (qiymatlarning mos kelish- kelmasligi, ularning sabablari aniqlanadi)

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Yusupbekov N.R., Muhamedov B.I., G'ulomov SH.M. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish: Darslik, -Т.: “O‘qituvchi”, 2011, 576 б.
2. Юсупбеков Н.Р., Мухамедов Б.И., Гуломов Ш.М.. Технологик жараёнларни бошқариш системалари. Дарслик, -Т.: “Ўқитувчи”, 1997, 705 б.
3. Клюев А.С. и др. Проектирование систем автоматизации технологических процессов; 2-е издание. –М.: Энергоатомиздат, 1990.
4. Клюев А.С. и др. Техника чтения схем автоматического управления и технологического контроля. 3-е издание. –М.: Энергоатомиздат, 1990.
5. Трегуб и др. Проектирование, монтаж и эксплуатация систем автоматизации в пищевой промышленности. –М.: Агропромиздат, 1991.
6. Наладка средств измерений и систем технологического контроля. Под редакцией А.С. Клюева. 2-е издание. – М.: Энергоатомиздат, 1990.
7. Минаев П.А. Монтаж систем контроля и автоматики. 2-е издание. – М., Стройиздат, 1990.
8. Клюев А. С. Наладка автоматических систем и устройств управления технологическими процессами. –М.: Энергоатомиздат, 1990.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Тищенко Н.Н. Введение в проектирование систем управления. 2-е издание. – М.: Энергоатомиздат, 1986.
2. Мартыненко И.И. и др. Проектирование систем автоматизации 2-е издание. – М.: Энергоатомиздат, 1991.
3. Емельянов А.И. и др. Проектирование систем автоматизации технологических процессов. 2-е издание. – М.: Энергоатомиздат, 1991.
4. Мимиконов А.Г. Проектирование АСУ. –М.: Высшая школа, 1987.
5. Инструкция по составлению проектов производства работ на монтаж систем автоматизации. ВСН /61-82/ Минмонтажспецстрой. –М., 1984.
6. СНиП 3.0507-85. Системы автоматизации.
7. Котов К. И. и др. Монтаж, эксплуатация и ремонт автоматических устройств. 2-е изд. – М.: Металлургия, 1999.
8. Под. ред. А. В. Калиниченко, Справочник инженера по контрольно-измерительным приборам и автоматике. Учебно-практическое пособие. – М.: Инфра – Инженерия, 2008.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – ta’lim portalı

## **GLOSSARIY**

### **(Fanga oid tayanch so‘z va iboralarining qisqa talqini)**

1. Kimyo-texnologik tizimlari - unda ketayotgan fizik-kimyoviy jarayonlar va ularni amalga oshiruvchi vositalar birgalikda tushuniladi;
2. Avtomatlashtirish – inson bajaradigan boshqarish jarayoni vazifalarini texnik vositalarga topshirish;
3. Avtomatlashtirish texnik tizimining xayotiy faoliyat davri – quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: g‘oya; loyihalash; montaj; sozlash; ekspluatatsiya va ekspluatatsiyadan chiqarib tashlash;
4. LART - Lokal avtomatik rostlash tizimlari;
5. TJABT - texnologik jarayonlar avtomatik boshqarish tizimlari;
6. KABT - korxonani avtomatik boshqarish tizimlari;
7. Loyixalashga topshiriq - buyurtmachi tomonidan, bosh loyixalovchi ishtirokida, loyihalanayotgan obyekt qanday bo‘lishi kerakligini hisobga olib ishlab chiqiladigan xujjat;
8. Ishchi loyiha – bir bosqichda tayyorlanadigan loyiha xujjati;
9. Texnik va ishchi loyiha – ikki bosqichda tayyorlanadigan loyiha xujjati. Avval texnik loyiha, so‘ngira texnik loyiha asosida ishchi loyiha tayyorlanadi;
10. Boshqarish strukturasi - obyekt qayerdan boshqarilishini, boshqarish punktlari qayerda joylashishini, ular orasidagi bog‘liqliklarni ko‘rsatadi;
11. Boshqarish punktining nomi - ishlab chiqarishning dispatcher punkti, sexning operator punkti va boshqalar.
12. Boshqarish strukturasida qaror qabul qilishga ma’sul texnik personal - smena dispatcheri, operatori va sh.o‘.;
13. Boshqarish strukturasida o‘rnatilgan asosiy qurilmalarning nomlari - nazorat shchiti, boshqarish pulti, mnemosxema, boshqaruvchi xisoblash kompleksi (UVK), aloqa vositasi va sh.o‘.;
14. O‘lchov asboblarining sezgir elementlari – o‘lchanayotgan parametrni mos ravishda kuch o‘zgarishiga, siljishga yoki qandaydir boshqa kattalikga o‘zgartiruvchi qurilma;
15. Signal o‘zgartirgich – o‘lchanayotgan parametrni masofaga uzatishga qulay bo‘lgan pnevmatik yoki elektr signaliga o‘zgartirib beruvchi qurilma;
16. Ikkilamchi asbob – texnologik parametr qiymatini masofadan turib o‘lchovchi asbob;
17. Rostlagich – rostlanayotgan parametrni belgilangan qiymat bilan solishtirib, P-, PI-, PD-, PID-qonunlari bo‘yicha rostlash ta’sir signallari ishlab chiqarib, obyektga ta’sir ko‘rsatuvchi qurilma;
18. Avtomatlashtirishning funksional chizmalari – avtomatlashtirishni shartli grafik va xarflı belgilanishlar orqali ko‘rsatilishi;
19. Avtomatlashtirishning soddalashtirilgan funksional sxemalari – avtomatlashtirishni bir pozitsiya bilan ifodalangan ko‘rinishi;

20. Avtomatlashtirishning yoyib berilgan funksional sxemalari – avtomatlashtirishi hamma elementlarini alohida pozitsiyalar bilan ifodalangan ko‘rinishi;
21. O‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarining buyurtma spetsifikatsiyasi – tanlangan avtomatlashtirish vositalarining xar birini alohida pozitsiyalarda to‘liq nomi, texnik ko‘rsatkichlari va ishlab chiqaruvchi korxona ko‘rsatilgan xujjat;
22. Boshqarishning prinsipial elektr chizmaları – elektr yuritmalarini elektravtomatika qurilmalari yordamida (rele va uning kontaktlari yordamida) boshqarish chizmaları;
23. Signallashning prinsipial elektr chizmaları – signallovchi lampa va qo‘ng‘iroqlarni elektravtomatika qurilmalari yordamida (rele va uning kontaktlari yordamida) chegara qiymatlardan o‘tishini signallovchi chizmalar;
24. Ximoyalashning prinsipial elektr chizmaları – elektravtomatika qurilmalari yordamida (rele va uning kontaktlari yordamida) ximoyalanayotgan parametrni chegara qiymatlardan o‘tishini signallab, ximoyalanayotgan parametrning chegara qiymatidan chetlashishini oldini oluvchi boshqarish chizmaları;
25. Manbaa tarmog‘i – taqsimlash tarmog‘iga elektr manbani beriladigan tarmoq;
26. Taqsimlash tarmog‘i – avtomatlashtirishning elektr istimolchilariga manbani taqsimlaydigan tarmoq;
27. Manbani zaxiralash – asosiy manba tarmog‘ida manba bo‘lmay qolganda, avtomatik ravishda, elektr manba taqsimlash tarmog‘iga zaxira tarmog‘i orqali berilishi;
28. Asosiy manba tarmog‘i – asosiy va zaxira tarmoqlarida tok bo‘lganda, taqsimlash tarmog‘iga tokni beradigan manba tarmog‘i;
29. Zaxira manba tarmog‘i – asosiy manba tarmog‘ida tok bo‘lmay qolganda, taqsimlash tarmog‘iga tokni beradigan manba tarmog‘i;
30. KIP xavosi – tozalab, quritilgan, bosimi 0,14 MPa dan kam bo‘lмаган siqilgan xavo;
31. Shchit va pultlar - avtomatik nazorat, boshqarish va signallash asboblarini va avtomatlashtirish vositalarini boshqarish punktlarida joylashtirishga mo‘ljallangan qurilma;
32. Shchitlarning ichki tomondan ko‘rinishi chizmasi – grafikli, adresli yoki jadval usullaridan foydalanib avtomatlashtirish vositalarining o‘zaro ulanishlarini ko‘rsatuvchi chizma;
33. Shchitlarning old tomondan ko‘rinishi chizmasi – chizmada o‘lchov asboblari va mnemosxema keltirilib, ularning gabarit o‘lchamlari qo‘yib ko‘rsatiladi;
34. Tashqi elektr ulanishlar – birlamchi signal o‘zgartirgichlar bilan ikkilamchi asboblarni, rostlagichlar bilan klapanlarning elektr ulanishlari;
35. Tashqi trubali ulanishlar – birlamchi signal o‘zgartirgichlar bilan ikkilamchi asboblarni, rostlagichlar bilan klapanlarning trubali ulanishlari;
36. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish tizimlari -
37. Lokal TJABT lar - kam sonli bir turli asosiy yoki yordamchi operatsiyalar texnologik jarayonlarining avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari;

38. Kompleks TJABT lar - asosiy va yordamchi texnologik jarayonlarning lokal avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining birligidir, ular o‘zaro yagona agregatli va umumiy simvol bilan bog‘langan;
39. Integrallangan TJABT lar - murakkab va turli xil asosiy hamda yordamchi jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari bo‘lib, tizimning matematik ta’minotini yaratganda, texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda va texnologik jarayon hamda texnologik komplekslarni to‘la optimallashda ham ishlatiladigan tizim;
40. Loyihalashni texnik iqtisodiy asoslash (TIA) – TJ ABTning asosiy samara manbalari aniqlanadi (ishlab chiqarish samaradorligining ortishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va boshqalar). Tizimni yaratishga sarflanadigan xarajatlar hisoblab chiqilib, u tizimni joriy qilishdan kutilayotgan samara bilan solishtiriladi, ya’ni, tizimdan kutilayotgan texnik-iqtisodiy samara hisoblanadi;
41. Loyihalashga texnik topshiriq – TT da TJ ABT ni yaratishning maqsadga muvofiqligi va mumkinligi bilan birga bajarilishi kerak bo‘lgan hamma ishlar keltiriladi, xususan, ilmiy tadqiqot ishlari, loyixa, loyiha-konstrukturlik, qurilish montaj va sozlash ishlari, loyihalashga kerak bo‘lgan ma’lumotlar va boshqalar;
42. Texnik loyiha – TT va TIA, ITI natijalari asosida boshlanib, ishlab chiqiladigan xujjalalar tarkibi meyoriy xujjalarda belgilangan bo‘ladi;
43. Texnik-ishchi loyixa - murakkab bo‘lmagan texnik tizimlar uchun TJABT ni loyixalash bir boskichda amalga oshirilishi mumkin;
44. TJABTning tashkiliy ta’minoti – funksional, texnik va tashkiliy tuzilmasini va operativ xodimlar ishlashi uchun zarur va yetarli yo‘riqnomalarini o‘z ichiga oladi;
45. ABT xizmati – odatda, korxonaning axborot-hisoblash markazi (AHM) va korxonaning metrologik xizmatidan iborat bo‘ladi;
46. Korxonaning metrologik xizmati – obyekt bilan periferiyadagi aloqa qurilmalarini, texnologik parametrlarning signal o‘zgartirgichlarini va qurilma xolati, aloqa tizimi, turli tipdagi signal o‘zgartirgichlarning to‘g‘ri ishlashini ta’minlash xizmati;
47. ABTning funksional strukturasi – tizim bajarayotgan funksiyalar majmui, bu funksiyalarning amalga oshirish tartibini belgilovchi ular orasidagi bog‘liqliklar;
48. Texnologik instruksiya – TJ ABT ishlashini ta’minlash bo‘yicha personal harakatining bayoni;
49. Lavozim yo‘riqnomalar - TJ ABT ishlashini ta’minlash bo‘yicha lavozimdagи shaxslar uchun joriy qilingan vazifalar, huquqlar va majburiyatlar;
50. Аналогли сигналларни киритиш тизими – сигнални масофага узатиш, сигнални нормаллаштириш, сигнални коммутациялаш, сигнални, аналог-ракамли ўзгартериш;
51. Diskret signallarni kiritish tizimi – signallarni normallash (kuchlanishni 5 yoki 10 V gacha olib kelish) va ularni tegishli registrlarda xotiraga olish ishlari bajariladi;

52. Analogli signallarni chiqarish tizimi – bu tizim sistemadan analogli tok kuchi signallarini (odatda 0 – 5 mA yoki 4 – 20 mA) va kuchlanish signallarini (odatda 0 dan 10 V gacha) chiqarishga mo‘ljallangan;
53. Diskret signallarni chiqarish tizimi – bu tizim sistemadan turli kuchlanishli va tok kuchiga ega diskret signallarni chiqarishga mo‘ljallangan;
54. TJABT da qo‘llaniladigan boshqaruv hisoblash komplekslari – katta ma’lumotlar massivini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritishi mumkin bo‘lgan, alfavit-raqamli ma’lumotlarni bevosita kiritish va chiqarish imkonini bo‘lgan, displayi bor, operativ xotirasi katta qurilma;
55. Umumiy dasturiy ta’midot – hisoblash mashinasi bilan birga buyurtmachiga yetkazib berilib, hisoblash mashinasini ishlashini ta’minlovchi xizmatchi va standart dasturlardan tashkil topgan bo‘ladi;
56. Maxsus dasturiy ta’midot – ABTning axborot, boshqarish va yordamchi funksiyalarini bajarishga xizmat qiladi;
57. Amaliy dasturlar paketi -
58. TJ ABT ning axborot ta’minoti – ABT ni texnologik jarayon parametrlari bilan ta’milanishi;
59. Ma’lumotlar bazasining boshqarish tizimlari – ABT uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlar bazasi va ularni boshqarish tizimlari;
60. TJ ABT ning metrologik ta’minoti - metrologik ta’minalash umumiyligi metrologik tavsifnomalar va aniq ko‘rsatkichlardan iborat;
61. Montaj ishlarini amalga oshirishga tayyorlash bosqichi – injener-texnik, moddiy-texnik va tashkiliy tayyorlash turlari;
62. Montaj ishlarini amalga oshirish bosqichi – o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarini o‘rnatish va ularga kerakli kommunikatsiyalarni ulash;
63. O‘rnatilgan o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarini topshirish – montaj ishlari kompleksi yakunlangandan so‘ng o‘rnatilgan o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarini ishga tushirish-sozlash ishlariga topshirish;
64. Montaj boshqarmasi – montaj ishlarini bajaruvchi asosiy maxsuslashgan xo‘jalik hisobidagi tashkilot;
65. Ishlab-chiqarishni tayyorlash bo‘limi (UPP) - injener-texnik va tashkiliy tayyorlash ishlari, shuningdek, ishlarni amalga oshirish loyihasini (PPR) ishlab chiquvchi bo‘lim;
66. Montaj uchastkalari – boshqarmaning asosiy ishlab chiqarishi hisoblanib, katta xajmdagi montaj ishlarini bajariladigan zavod yoki qurilishda tashkil etiladi;
67. Montajga tayyorlash masterskoylari (MZM) - montajga tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;
68. Birlamchi signal o‘zgartirgichlar – o‘lchanayotgan parametrni masofaga uzatishga qulay bo‘lgan elektr yoki pnevmatik signalga aylantirib beruvchi qurilma;
69. Rostlagichlar – rostlanayotgan texnologik parametrni belgilangan qiymatda ushlab turishga xizmat qiluvchi texnik qurilma;

70. Ijrochi qurilmalar – texnologik qurilmaning rostlash kanaliga o‘rnatilgan, rostlagichdan kelayotgan rostlash ta’sir signalini qabul qilib, rostlash organi yordamida obyektga ta’sir ko‘rsatuvchi qurilma;
71. Avtomatlashtirish vositalarini o‘rnatishning tipik chizmalari – Tipik chizmalar normativ texnik xujjatlar hisoblanib, ularda avtomatlashtirish vositalarini, montaj mahsulotlarini va detal va bo‘limlar konstruksiyasini o‘rnatish usullari ko‘rsatiladi;
72. Tipik montaj (TM) chizmalari – birlamchi signal o‘zgartirgichlarni devorda, texnologik truboprovodlarda va qurilmalarda o‘rnatilish usullari chizmalari;
73. Tipik konstruksiya (TK) chizmalari – birlamchi signal o‘zgartirgichlarni o‘rnatishga ishlataladigan tipik konstruksiyalar chizmalari;
74. O‘rnatish (zakladniye) konstruksiyalari (ZK) chizmalari - texnologik qurilma va truboprovodlarga avtomatlashtirish tizimi asboblarini o‘rnatishni ta’minlovchi qurilmalar chizmalari;
75. Avtomatlashtirish tizimlarini sozlashga tayyorlash – buyurtmachi bilan kelishgan xolda sozlash ishlarini bajarish grafigi va dasturini ishlab chiqish hamda, o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarini montajdan oldingi tekshiruvini amalga oshirish;
76. Avtomatlashtirish tizimlarini avtonom sozlash – ishga tushirishdan avvalgi o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalarini ishlamayotgan texnologik qurilmada tekshirish, ikkilamchi o‘lchov asboblarini mexanik va elektr nolga sozlab, diagramma qog‘ozini o‘rnatish;
77. Nazorat qilinayotgan parametr o‘zgarishi immitatori – axborot beruvchi tizim uzib tashlanib, signal o‘zgartirgich o‘rniga nazorat qilinayotgan parametr o‘zgarishining immitatori ulanadi. Masalan, qarshilik termometri o‘rniga qarshilik magazini, termopara o‘rniga rostlanuvchi kuchlanish manbai va xakozo;
78. Avtomatlashtirish tizimlarini kompleks sozlash - texnik vositalarining sozlash parametrlari avtomatlashtirish tizimlari ishlataladigan qiymatlariga yetkazilib sozlanishi;
79. Avtomatlashtirish tizimlarini ishlatish xizmati - avtomatlashtirish tizimlarining ishonchli va to‘g‘ri ishlashini ta’minlaydigan ishlarni amalga oshiruvchi xizmat;
80. Metrologik xizmat – tarkibida ishlab chiqarishni metrologik ta’minoti, o‘lchash va avtomatlashtirish vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish, o‘lchash va avtomatlashtirish vositalarini ta’mirlash, ishlab chiqarishga avtomatlashtirish tizimlarini joriy qilish va rivojlantirish, o‘lchash vositalarini tekshirish, o‘lchash va avtomatlashtirish vositalarini hisobga olish, saqlash va tarqatish bo‘limlari bo‘lgan xizmat;
81. Metrologik ta’minot – o‘lchash birligini va talab qilingan aniqlikni ta’minlaydigan kompleks ilmiy-texnikaviy va tashkiliy tadbirdir;
82. Metrologik ekspertiza - o‘lchanishi kerak bo‘lgan parametrlarni tanlashdagi texnik yechimlarni taxlil qilish va baholash, aniqlik normalarini belgilash va o‘lchash usullari va vositalari bilan ta’minalashni o‘z ichiga oluvchi tadbir;

83. Birlamchi etalon – rasmiy ravishda davlat birlamchi etaloni deb tasdiqlangan, erishish mumkin bo‘lgan eng aniq etalon;
84. Etalon nusha – Birlamchi etalonni, aniqligini saqlash va ishlardan ozod qilish maqsadida yaratiladigan etalon - nusha etalon hisoblanadi va u fizik kattaliklarning o‘lcham birliklarini ishchi etalonlarga o‘tkazadi;
85. Ishchi etalonlar - fizik kattaliklarning o‘lcham birliklarini namunali o‘lchash vositalariga uzatishga mo‘ljallangan etalon;
86. Namunaviy o‘lchov asboblar – fizik kattaliklarning o‘lcham birliklarini texnik o‘lchov asboblariga uzatishga mo‘ljallangan;
87. Texnik o‘lchov asboblar – texnologik jarayon parametrlarini o‘lchashda ishlatiladigan asbob;
88. Birlamchi tekshiruv – o‘lchash vositasini korxonada ishlab chiqilgandan so‘ng yoki remontdan so‘nggi tekshiruvi;
89. Davriy tekshiruv – o‘lchov asboblarini ishlatish jarayonining belgilangan tekshirishlar oralig‘ida amalga oshiriladigan tekshiruvi;
90. Navbatdan tashqari tekshiruv – o‘lchash vositalarini omborda saqlangandan so‘ng ishlatishga tushirishda, agar bu davr ichida davriy tekshirish amalga oshirilmagan bo‘lsa, yoki, ularni yetkazib beruvchi ishlab chiqaruvchi korxonaning ilova qilgan xujjatida ko‘rsatilgan kafolat davrining yarim muddati o‘tib bo‘lgan bo‘lsa amalga oshiriladi;
91. Inspeksiya tekshiruvlari – o‘lchash vositalarni ta’mirlash, ishlatish, saqlash va sotish bilan shug‘ullanadigan korxonalar o‘lchash vositalarini metrologik reviziya qiluvchi tekshiruvar;
92. Avtomatlashtirish vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish – o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalari texnik xolatini muntazam nazorat qilib borib, ularni to‘g‘ri ishlashini ta’minlash;
93. Korxonaning metrologik xizmati smena brigadalari - tarkibida navbatchi slesarlar va brigadir bo‘lgan smena;
94. Metrologik xizmatning ta’mirlash guruxi - korxonada o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalari ta’mirlash bilan shug‘ullanadigan gurux;
95. TJ ABT ni komplektlash – TJABT ning texnik topshiriqda belgilangan vazifalarini bajarilishini ta’minlovchi texnik vositalar bilan ta’minalash;
96. TJ ABT ni sozlash – TJABT ni lokal va kompleks sozlash;
97. TJ ABT ni ”ishlashini tahlil qilish” – TJABTni xar bir elementini va butun tizimni ishlashini taxlil qilish;
98. TJ ABT texnik vositalarini montaji – TJABTni aloxida vositalarini o‘rnatish;
99. TJABT ni sozlash - TJ ABT texnik vositalari va dasturiy ta’motini sozlash;
100. Dasturlar kompleksidagi xatolarni topish va lokalizatsiyalash - maxsus usullar va testlar yordamida dasturiy ta’motdagi xatolarni aniqlash.